


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLYI TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



« AMALIY TESTOLOGIYA MUAMMOLARI »

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

Toshkent 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: O‘zMU, “Psixologiya” kafedrasida dotsenti, psixol.f.d.
A.Rasulov.

Taqrizchilar: O‘zMU, “Psixologiya” kafedrasida professori, psixol.
f.d. D.Muxamedova

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	9
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	15
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	77
V. GLOSSARIY	102
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	105

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: “Amaliy testologiya muammolari” moduli testologiya fanlar tizimidagi o‘rni (psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot, kibernetika va boshqalar),

testologiyaning asosiy metrologik tushunchalari, testlar klassifikatsiyasi, o'lchash testlari konstruksiyasi: test komponentlari va ularning tuzish tartibi, test tuzish va amaliy qo'llash bosqichlari, psixometrik testlarning validligi, rentabelligi va haqqoniyligi, oliy ta'lim tizimidagi sinovlarda testlarni qo'llash haqida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

□ testologiya fanlar tizimidagi o'rni baholash, testologiyaning asosiy metrologik tushunchalari, testlar klassifikatsiyasi, o'lchash testlari konstruksiyasini tahlil qilish imkoniyatlari:

- test komponentlari va ularning tuzish tartibi, test tuzish va amaliy qo'llash bosqichlari, psixometrik testlarning validligi, rentabelligi va haqqoniyligi, oliy ta'lim tizimidagi sinovlarda testlarning qo'llash haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- testologiya fanlar tizimini;
- testologiyaning asosiy metrologik tushunchalarini;
- testlar klassifikatsiyasini;
- o'lchash testlari konstruksiyasini;
- test tuzish va amaliy qo'llash bosqichlarini *bilishi* kerak.

□ yangi psixologik testlar ishlab chiqishni;

□ testlarning yutuq va kamchiliklarini, metodikalarning ishonchliligi va validligini ta'minlash;

□ metodikalarni testlashtirish sohalariga muvofiq tanlash va foydalanish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

□ yangi psixologik testlar ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash;

□ psixologik testlarni moslashtirish va metodikalarni qo'llash *malakalariga* ega bo'lishi lozi.

□ testologiyaning asosiy tamoyillari va mezonlariga tayanib, oliy ta'lim tizimidagi sinovlarda testlarni qo'llash *kompetensiyasiga* ega bo'lish lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Amaliy testologiya muammolari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta’limda psixologik xizmat muammolari”, “Tatbiqiy ijtimoiy psixologiya” va “Zamonaviy psixodiagnostika muammolari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida test tuzish texnologiyalari b‘yicha kasbiy pedagogik tay‘ergarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida va kasbiy faoliyatida testologiyaning asosiy tamoyillari va qoidalaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

“Amaliy testologiya muammolari” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Жами	jumladan	
			Назарий	Амалий машғулот
1.	Testologiya haqida tushuncha. Testologiya fanlar tizimida: psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot, kibernetika va boshqalar. Amaliy testologiya tashkiliy-texnologik fan sifatidi.	2	2	
2.	Testologiyaning asosiy metrologik tushunchalari	2	2	
3.	Testlar klassifikatsiyasi	2	2	
4.	O'lchash testlari konstruksiyasi: test komponentlari va ularning tuzish tartibi	2		2
5.	Test tuzish va amaliy qo'llash bosqichlari. Pedagogik testlashtirish.	2		2
6.	Matematik testologiya. Psixometrik testlarning validligi, rentabelligi va haqqoniyligi.	2		2
7.	Oliy ta'lim tizimidagi sinovlarda testlarni qo'llash	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Testologiya haqida tushuncha. Testologiya fanlar tizimida: psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot, kibernetika va boshqalar. Amaliy testologiya tashkiliy-texnologik fan sifatidi (2 soat).

1.1. Testologiya haqida tushuncha.

1.2. Testlashtirishning predmeti va obykti.

1.3. Testologiyaning predmeti va obykti.

1.4. Testologiyaning fanlar tizimida: psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, tibbiyot, kibernetika va boshqalar.

1.5. Amaliy testologiya tashkiliy-texnologik fan sifatida

2-mavzu. Testologiyaning asosiy metrologik tushunchalari (2 soat).

2.1. Psixometrik testlar va ularning kvazio'lchash testlardan farqi.

- 2.2. Test kaliti, meyorlari, quruq va standart test ballari.
- 2.3. Testologiyaning asosiy metrologik tushunchalari:
- 2.4. Ishonchlilik
- 2.5. Validlik.
- 2.6. Rerezentativlik.
- 2.7. Haqqoniylik

3-mavzu. Testlar klassifikatsiyasi (2 soat).

- 3.1. Testlar klassifikatsiyasi: ta'lim, tibbiy, kasbiy va psixologik testlar.
- 3.2. Testlar va topshiriqlarni klassifikatsiyalashning asoslari.
- 3.3. Proyektiv metodikalar bilan testlarning qiyosiy tahlili.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. O'lchash testlari konstruksiyasi: test komponentlari va ularning tuzish tartibi (2 soat).

2-amaliy mashg'ulot. Test tuzish va amaliy qo'llash bosqichlari (2 soat).

3-amaliy mashg'ulot. Matematik testologiya. Psixometrik testlarning validligi, rentabelligi va haqqoniyligi (2 soat).

4-amaliy mashg'ulot. Oliy ta'lim tizimidagi sinovlarda testlarni qo'llash (2 soat).

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

«FSMU» metodi


Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;


- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: “Internetning multimadaniy muloqot maydoni” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.



Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tiliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Xal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar

<i>Postindustrial jamiyat</i>			
<i>Axborot jamiyati</i>			
<i>Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot</i>			
<i>Virtual jamiyat</i>			

Izoh:Bo'sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.

Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn
<i>“V” – tanish ma'lumot.</i>		
<i>“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak</i>		
<i>“+” bu ma'lumot men uchun yangilik</i>		
<i>“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?</i>		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi

Maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqiqa davomida sinchiklab o'rganish talab etiladi. .
2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi guruh a'zolarini o'qilgan ma'lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarining xar biri o'qigan ma'lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.
4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr almashingan ma'lumot yuzasidan boshqa guruxlarga berish uchun savol shakllantiradi.
5. Xar bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va tugri javob uchun 1-3 gacha ball kuyiladi.
6. Trener-o'qituvchi barcha guruxlar to'plagan ballarni umumlashtirib, g'olib guruxni e'lon qiladi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa: Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so'ng guruhda muxokama qiling

<p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">1- guruhga vazifa</p>	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o‘z ichiga uchta blokni oladi – pleyer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko‘rish uchun pleyer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishni uch yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - pleyer tagida joylashgan kursor yordamida; - “Stenogramma” blokida mant fragmentini bosib; - “Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali
<p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">2- guruhga vazifa</p>	<p><i>Slayd-shou. Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo‘yiladi. Slayd-shou ovoz bilanbirgalikda audio-illyustratsiya elementlarini, ya’ni audiotsitatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to‘yintirilgan matnni o‘z ichiga olishi mumkin. Vizual ketmaketlik ixtiyoriy. Ular voqea joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba’zida yangiliklarni illyustratsiya qilish uchun kerak.</i></p>

<p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">3- guruhga vazifa</p>	<p><i>Audioslayd-shou – zamonaviy jurnalistikaning multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillyustratsiyalashtirishning sintetik varianti bo‘lib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo‘lgan. Ba’zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qo‘llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo‘yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif o‘qigan matn bo‘lishi mumkin. Mazmunning asosi bo‘lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiotsitata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqea sodir bo‘lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p>
<p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">4- guruhga vazifa</p>	<ul style="list-style-type: none"> - <i>Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo‘lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, obyektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini ko‘rsatishda aktualdir.</i> - <i>Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo‘yilgan bo‘lib, ularni bosganda matn, video, ssilka, ijtimoiy to‘rlarning statuslari chiqadi.</i>

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU. TESTOLOGIYA VA UNING FANLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

Reja:

- 1.1. Testologiya tushunchasi.
- 1.2. Testlashtirishning predmeti va obyekti.
- 1.3. Testologiyaning predmeti va obyekti.
- 1.4. Testologiyaning fanlar tizimidagi o‘rni.
- 1.5. Amaliy testologiya tashkiliy-texnologik fan sifatida

Testologiya tushunchasi

Psixologik testlashtirishning spontan tarzda vujudga kelishini uzoq tarixiy davr bilan bog‘lash mumkin. Antik davrga xos misol sifatida buyuk sarkardaning o‘z qo‘shinidagi askarlarini suvni qanday ichishlariga e‘tibor qaratishi orqali ularni axloqiy-irodaviy sifatlarini muhokama qilishi misol sifatida keltiriladi. Shu o‘rinda eslatib o‘tish mumkinki, **testologiya** - shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisdir.

Zamonaviy testologiya yetuk amaliy fan bo‘lib, o‘zida test topshiriqlarini yaratishning asosiy tushunchalari va terminlarini, tamoyillarini, shakllarini (tuzilishini), mazmuniga, qiyinligiga qo‘yiladigan talablarni, test topshiriqlarini baholash shkalalarini, ya‘ni test topshiriqlari bankini yaratish bo‘yicha faoliyatni belgilovchi meyorlarni o‘zida jamlaydi.

Hozirgi vaqtda ixtiyoriy ta‘lim muassasasining har bir o‘qituvchisi o‘z faoliyatida o‘qitadigan fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasini baholash usuli sifatida test o‘tkazishdan foydalanadi. Buning uchun u ilmiy asoslangan test topshiriqlarini Davlat ta‘lim standartlari yoki Davlat talablariga mos ta‘lim dasturi bo‘yicha ishlab chiqishi zarur. Ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari zamonaviy testologiya fani talablariga javob beradigan test topshiriqlarini ishlab chiqishi uchun maxsus tayyorgarlikni tashkil etish zarur.

Ta'lim tizimi uchun testologlarni tayyorlash bo'yicha chet el mamlakatlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasi (RF) tajribasi o'rganilgan. RF ta'lim tizimida pedagoglar malakasini oshirish ta'lim muassasalarida testolog-mutaxassislarni tayyorlash kurslari tashkil etilgan bo'lib, qo'shimcha «Testolog», ya'ni pedagogik o'lchovlar sohasi bo'yicha mutaxassis malakasini olmoqchi bo'lgan shaxslarni tayyorlash uchun ko'plab kasbiy ta'lim dasturlari mavjud. Buning uchun kasbiy ta'lim dasturlari va tayyorlash darajasining minimum mazmuniga qo'yilgan Vaqtinchalik davlat talablari tasdiqlangan. Dastur ta'lim tizimining professor-o'qituvchilari, pedagogik va ilmiy-tadqiqotchi kadrlar tarkibidan testologlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan. «Testolog» malakasi oliy ta'lim muassasalarini pedagogika va psixologiya yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarning, shuningdek, magistratura bitiruvchilarning asosiy malakasiga qo'shimcha bo'lib hisoblanadi. Dasturdan, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimida ham foydalanish mumkin. Dastur ta'lim tizimining professor-o'qituvchilari, pedagogik va ilmiy-tadqiqotchi kadrlar tarkibidan testologlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan. «Testolog» malakasi oliy ta'lim muassasalarini pedagogika va psixologiya yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarning, shuningdek, magistratura bitiruvchilarning asosiy malakasiga qo'shimcha bo'lib hisoblanadi.

Testologiya - shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir. Ta'limning asosiy maqsadi — o'quvchilarga fanlar bo'yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda ma'naviy, axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, dunyoqarashlarini shakllantirish, kengaytirish va rivojlantirishdan iboratdir. Berilayotgan bilim, hosil qilayotgan ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash va baholash o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularni aniqlashda esa turli forma va metodlardan foydalaniladi. Jumladan, savol va javoblar, suhbat, yozma ishlar kollektivium, seminar, sinov, imtihonlar o'tkazish va boshqalar. Yuqorida qayd qilingan forma va metodlarga nisbatan test topshiriqlari asosida sinovlar o'tkazish o'quvchilarning bilim,

ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda hamda baholashda ancha qulay va samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Testlardan foydalanish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu esa bilim, ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganini (qay darajada) va baholashning obyektiv miqdoriga bo'lgan zaruriyat bilan bog'liqdir. Test — inglizcha so'z bo'lib, «testr», ya'ni «tekshirish», “sinov” ma'nosini bildiradi. Testlardan foydalanish haqidagi dastlabki ma'lumotlar ingliz olimi Fisherning 1864 yilda e'lon qilingan «Scale books» kitobida, Amerika olimi J.I.Royoshning «Orfografiya — bilimlarni tekshirish» jadvalida (1884), nemis olimi Ebbengausning (1897) nuqtali bo'lib qoldirilgan matnlarida keltirilgan. XIX asrning dastlabki o'tgan yilida maktabda o'zlashtirishni aniqlashga xizmat qiluvchi testlar Germaniyada, keyinchalik AQShda yaratilib yanada rivojlantirilgan. Hozirgi paytda bunday testlar Buyuk Britaniya, Skandinaviya, Niderlandiya, Turkiya, AQSH, Germaniya maktablarida muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinmoqda.

Testlar umuman quyidagi qismlarga bo'linadi: a) psixologik; b) pedagogik; s) sotsiologik. Psixologik testlar — shaxsning psixologik xususiyatlarini, uning intellektual tomonlarini o'rganadi va aniqlaydi. Pedagogik testlar ta'lim- tarbiya jarayonida bilimlar darajasini aniqlaydi. Sotsiologik testlar — shaxsning ijtimoiy tomonlarini o'rganadi va aniqlaydi. Bu yerda ko'proq pedagogik testlar haqida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Pedagogikada qo'llanadigan testlar predmet testlari deb ataladi. Predmet testlari har bir predmetdan o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, sistemalashtirish, o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash maqsadlariga qaratilishi mumkin. O'quv yili davomida ta'lim- tarbiya jarayonida yuqoridagi test formalarining istalganidan foydalanish mumkin. Bitirish va kirish imtihonlarida programmalashtirilgan testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Test varianti qancha ko'p bo'lsa, sinov natijasi shuncha obyektiv bo'ladi. Testologiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlari. Testologiya va uning faoliyat sohalari. Kasbiy ta'lim yo'nalishlari talabalarni ilg'or pedagogik texnologiya va uni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli axborotlar bilan qurollantirish maqsadida yaratilgan. Testshunoslik asoslari mazmunini yoritishda uning odatdagi o'qitish usullaridan farq qiluvchi jihatlari, O'zbekiston

ta'lim tizimiga uni joriy etishning ahamiyati, test topshiriqlari shakllari, ularni tuzish hamda pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, o'quv materialini to'la o'zlashtirish g'oyasini vujudga kelishi va uning amalga oshirish usullari bayon etilgan. Har bir mavzuga oid mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar va turli shakldagi nazorat testlari berilgan. Tuzilgan test topshiriqlari faqatgina o'zlashtirishni nazorat qilibgina qolmay, balki o'rgatuvchi (o'qituvchi) funksiyani ham bajaradi. Chunki, bu test topshiriqlarini yechish jarayonida mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirishga ham erishiladi.

1.1. Testlashtirishning predmeti va obyekti.

Obyekt va predmet o'rtasidagi uslubiy farq tadqiqot vazifasining muvaffaqiyatli yechimining kaliti bo'lmasa-da, bu farq yosh mutaxassisga nafaqat sertifikatlash va malaka ishini topshirishda rasmiy ravishda qabul komissiyasidan o'tishga yordam berishi mumkin, balki u nimani o'rganayotganini chuqurroq tushunishga ham yordam beradi.

Tadqiqot vazifalariga professional baholash faoliyatining bir turi sifatida qurilgan testlashtirish juda aniq maqsad va obyektga ega. Agar siz texnik qurilmani (masalan, kompyuter yoki avtomobilni) sinovdan o'tkazayotgan bo'lsangiz, baholash faoliyatingizning obyekti texnik qurilmaning o'zi bo'lib, subyekt siz hozirda baholayotgan (tekshirayotgan) funksiyasidir. Texnik testologiya muammolari texnik qurilmalarni testlashtirish (diagnostika) sohasidagi ba'zi misollar psixologik, ta'lim va kadrlar (professional) test sohalarida nima sodir bo'layotganini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Psixologik, ipedagogik yoki texnik testlashtirish bilan bog'liq jarayon bir biriga yondash testlashtirish yoki biror obyektning xususiyatlarini tekshirishni iofda etsa-da, lekin bu hollarda obyektlar bir-biridan farq qiladi. Psixologik testlashtirishda (yoki psixodiagnostikada) shaxsning ruhiy xususiyatlari: xususan, idrok, tasvir, diqqat, xotira kuchi, fikrlash ijodkorligi, temperament, xarakter va motivatsiya xususiyatlari, etc. In ta'lim test ishi, mavzu bilim, ko'nikma, ko'nikma va bilim qobiliyatlari, ammo, yaqinda bir umumiy va yanada murakkab tushunchasi bilan birlashgan.

Testlashtirish tushunchasini tatbiq qilayotgan vaqtda u keng ma'noga ega ekanligi, ya'ni psixologik testlashtirish, pedagogik testlashtirish va o'rni kelganda texnik jihozlarni va texnika xususiyatlarini aniqlashda ham qo'llanilishi mumkinligini e'tibordan chetda qoldirmalik muhim.

Shunga ko'ra psixologik testlashtirishning (psixodiagnostika) predmeti insonning psixik xossalari, ya'ni idrokning konstantligi, diqqat ko'lami, xotiraning mustahkamligi, tafakkurning kreativligi, tempeament qirralari, xarakter va motivatsiya xususiyatlarini baholashdan iborat.

Pedagogik va ta'lim jarayonidagi testlashtirishning predmeti ta'limdagi kompetensiyalar, kadrlar faoliyatidagi professional faoliyatni testlashtirishda esa kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi kasbiy kompetensiyalar predmet hisoblanadi

Testlashtirishning gumanistik yo'nalishga xos predmet va obyeki masalasiga aniqlik kiritishda quyidagi munosabatlar ifodalanishini keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

	Gumanistik testlashtirish obyekt-inson	
Psixologik testlashtirish: obyekt-inson	Ta'limdagi testlashtirish: obyekt-inson	Professional (kadrlar) faoliyatni testlashtirish: Obyekt-inson
Predmeti: psixik xossalari	Predmet: O'quv kompetensiyalari	Predmet: Kasbiy kompetensiyalar

1-rasm. Gumanistik sohalardagi testlashtirishning predmeti va -obyekti o'rtasidagi munosabatlar

Testologiyaning predmeti va obykti

Testlashtirish va testologik tadqiqot aralashtirish kerak emas- ular bir biriga bo'lii bo'lsa-da, ammo bu ikki xil faoliyatdir. Testologiya fanining predmeti va obykti metodologik fan sifatida amaliy tekshirish (testlashtirishdan) dasturining predmeti va obyktidan bir muncha farq qiladi. Testologik tadqiqotda bevosita obyekt-bu metodika yoki metodikalar (ko'plikda), uning predmetini esa ushbu obyektning (metodikalar) funksional xususiyatlari, ya'ni testlarning psixometrik (metrologik) sifatlarini o'rganishdan iborat. Shunday qilib, metodologik testologiya texnologik jarayonlarga, test metodlaridan amaliy foydalanuvchilarning texnologik (uslubiy) qurollanishiga yo'naltirilgan maxsus fandır. Har safar obyekt sifatida muayyan shaxsga ega bo'lgan metodikadan amaliy foydalanuvchidan farqli o'laroq, testologning faoliyat obykti aynan faoliyat vositasi-metodikadir.

Test metodining xususiyatlarini o'rganuvchi olim aniq odamlarni tekshirishning amaliy vazifasini emas, balki muayyan metodikaning imkoniyatlarini tekshirishning ilmiy-metodik vazifasini hal etadi. Metodikaning psixometrik (testologik) xususiyatlarini tekshirish jarayonida test tadqiqotchisi muayyan ilmiy farazlar orqali bu metodikaning funksional xususiyatga ega (yoki ega emas) ekanligi bilan ularni o'rganadi.

Testologiyada testlarning funksional sifati odatda "psixometrika" deb ataladi. Bu terminologik an'ana umuman psixologik testning torroq sohasiga aloqadordir. Bu esa universal testologik atamalar ishonchlilik, validlik, reprezentativlik orqali yaqqol metodikaning sifat ko'rsatkichini ta'minlaydi.

Testologiyaning fanlar tizimidagi o'rni

Testologiyaga berilgan izoh asosida, u faqat psixologiya yoki pedagogikaga aloqador fan sifatida yondashish noto'g'ridir. Shu boisdan ham testologiyaning fanlar tizimidagi fan sifatida munosabat bildirish muhimdir. Metrologik munosabatlarga aloqador fan sohalari

testologiyaning ma'lum talablari va prinsiplariga bo'ysunadi. Shuning uchun bu boradagi mulohazalarga izoh sifatida quyidagi ma'lumotlar jamlamini taqdim etish maqsadga muvofiq.

Testologiya va sotsiologiya

Sotsiologik test - bu qiziqish xususiyatlari to'g'risida ishonchli va asosli ma'lumotlarni olish uchun Respondentga taqdim etilgan sotsiologik usullar bilan tanlangan fikrlar tizimi.

Testologiya va sotsiologiya:

- Universallik - o'rganilayotgan hodisaning eng umumiy muhim ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan texnik, bu deyarli har qanday sotsiologik tadqiqotda undan foydalanish imkoniyatini ochib beradi;
- Yaxlitlik - sotsiologik testning turli o'lchamlarini bitta integral ko'rsatkichga ifodalash qobiliyati;
- Sifat - sotsiologik test ishonchliligi va asosligining statistik ko'rsatkichlari bilan "tasdiqlangan" bo'lishi kerak;
- Standartlashtirish - o'rganilayotgan hodisaning jiddiyliги nuqtai nazaridan olingan natijalarni izohlashga imkon beradigan o'rganilayotgan hodisaning "normalari" ni o'rnatish;
- Ixchamlik - sotsiologik testning ommaviy so'rovlarda foydalanish uchun yetarlicha ixcham bo'lishidir ;
- "ta'sirchanlik" - ixchamlikni talab qilgan holda, sotsiologik test qabul qilinadigan o'lchov aniqligiga ega bo'lishi;
- Obyektivlik - o'lchov maqsadi test natijalarini qalbakilashtirishdan qochadigan, respondentdan yashirilishini ifodalaydi.

Sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan testlar:

- Interpretativ test;
- Rasm test;
- Shaxslararo munosabat testi;
- Holat test;

- Jamoaning o‘zini o‘zi attestatsiya testi
- Blankali testi
- Konstruktiv test
- impressiv test
- konstitutiv test
- Apparaturali test

Sotsiologik so‘rovnoma:

So‘rov - bu savolga empirik darajada tadqiqot muammosini aks ettiruvchi savollarga javob beradigan odamlarning og‘zaki yoki yozma murojaatiga asoslangan birlamchi sotsiologik ma’lumotlarni olish usuli. Bu odamlar ongida kuzatiladigan ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o‘rganishga imkon beradi. So‘rovnoma turlarining tasnifi: – Anketalashtirish; – IntervY.

- Ekspert so‘rov.
- Sotsiometrik so‘rov.
- Testlashtirish.
- Standartlashtirilgan so‘rov - tayyorlash.
- Standartlashtirilmagan - anketa
- Kombinalashtirgan;
- Klinik - keng mavzular bo‘yicha.
- Yo‘naltirilgan - tor mavzudagi.
- Panelli - bir xil respondentlarning bir nechta so‘rovnomalarni o‘tkazish;
- Trend - tanlanmani saqlamagan holda bir obyektga takroriy so‘rov o‘tkazish.

Sotsiologik anketa

Sotsiologik anketa - bu obyektlarning soni va sifatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot mavzusi va sifatini aniqlashga qaratilgan yagona ma’no bilan birlashtirilgan so‘rovlar tizimi.

Uning maqsadining asosi tadqiqotchiga ishonchli ma'lumot berishdir. Bu respondent tomonidan qabul qilingan matnga muammoning tarjimasini bildiruvchi so'rovlar tizimi.

Savol vosita sifatida.

Savolning vazifasi tadqiqotchi kerakli ma'lumotlarni olish vositasidir. Qiyinchilik shundaki, bitta savol turli xil odamlarga yuboriladi, ularning har biri buni tushunishi kerak, tushunish uchun hech kimni xafa qilmang, chunki savol uni tushunishni talab qiladi.

Testologiya va tibbiyot

Qon tarkibidagi glyukoza darajasini o'rganish ekspress-testi;

VICH-infiksiyasini ekspressiv o'rganish;

Silni aniqlash ekspressiv testi;

Gepatit S (HCV)ga ekspress test;

Gepatit V ga ekspress test; Narkotikka ekpress test.

Alsgeymerni aniqlashga testlar –

Neyropsixologik testlashtirish.

- Mini-psixologik testlashtirish.
- Rasm chizishga asoslangan testlar.
- Matni yashirin saqlanadigan testlar.

Neyropsixologik testlashtirish

Sinovning ushbu turi mutaxassis tomonidan qabulxonada o'tkaziladi. Qoida tariqasida, integratsiyalashgan yondashuv kasallikning oxirlashuvidan 5-7 yil oldin dastlabki tashxisni kafolatlaydi.

Mini psixologik test

Ushbu test, oldingi singari, shifoxonada o'tkaziladi va bemorga hal qilishni taklif etadigan kichik vaziyatli vazifalardan iborat:

muammoli vaziyatni modellashtirish va bemor tomonidan uning yechimini kuzatish; diqqatni tekshirish;

potensial bemorning matematik qobiliyatini va o'qish qobiliyatini

tekshirish; bemorning xotirasi qobiliyatini sinab ko'rish (qisqa muddatli va tezkor).

Testologiya va texnika

- Audio apparatlarning texnik jihatlarini baholashga xizmat qiluvchi baholash vositalari.

- Qo'loqchin va kuchaytirgichlarni texnik testi

Quloqchin va kuchaytirgichlarni texnik testi

– Eshitish vositasining chastotaga javobi (chastotali javob).

– Eshitish vositasining chastota balansi.

– Eshitish vositasi empedansi.

– Eshitish vositasini o'lchash uchun texnik stendlar.

– Kuchaytirgichning chastotali javobi (chastotali javob).

– Kuchaytirgichning to'liq chiqish qarshiligi (empedansi).

– D / A konvertorlari uchun dinamik diapazon.

– Yangi Astra 2G' sun'iy yo'ldoshining texnik testidan o'tkazish;

– NTV texnik testlari

Testologiya va pedagogika

Pedagogik test - bu pedagogik testlardan foydalanishga asoslangan talabalar bilimini o'lchash shakli. Bunga sifat testlarini tayyorlash, testlarni amalda o'tkazish va natijalarga keyinchalik ishlov berish kiradi.

Pedagogik test - bu test topshiriqlari tizimidan, natijalarni o'tkazish, qayta ishlash va tashlil qilishning standartlashtirilgan protseduralaridan iborat ta'lim oluvchilar bilimini baholash vositasi. ***Psixologiya va testologiya***

Psixologik testlar bu o'zingizni yaxshiroq anglash, o'zingizning kimligingizni anglash, muayyan vaziyatlarda o'zingizni qanday tutishingiz, fe'l-atvoringiz va qobiliyatingizni o'rganish va baholashning oson va qulay usuli.

Amaliy testologiya tashkiliy-texnologik fan sifatida

"Test va testologiya nima?" tushunchasiga yana bir bora murojaat qilganla yangi bir atamaga duch kelinadi, ya'ni "amaliy testologiya" tushunchasidan foydalanishga zarurat tug'iladi. Ushbu tushuncha "psixometriya" ning an'anaviy tushunchasidan kengroq bo'lib, kamida ikki sababga ko'ra tafovutlanadi:

1) nafaqat ruhiy xususiyatlar, balki ta'lim va kasbiy faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ham o'lchanadi

(sinaladi).

2) test sinovlarining o'zi ushbu testning amalga oshiriladigan logistik va tashkiliy-psixologik shart-sharoitlarini hisobga olgan holda kengroq mazmunda ko'rib chiqiladi.

Ushbu ikki tafovutdan kelib chiqib, amaliy testologiyani umumiy tafsilotini quyijagi mulohazalarga ko'ra mohiyatini taqdim etamiz. Amaliy testologiya tashkiliy-texnologik fan sifatida talqin etiladi. Psixometriyaning barcha talablariga javob beradigan mutlaqo yorqin test usuli noqulay kontekstda joylashtirilsa, ya'ni tashkiliy-texnik va tashkiliy-psixologik shartlarning haqiqiy tashkilotda amalga oshirilishi uchun tayyorligini hisobga olmagan holda foydasiz va hatto zararli natijalar berishi mumkin. Bundan tashqari, test sinovlari jarayonini boshqaradigan (tashkil etadigan) test sinovlari yoki amaliy sinovchilarning yetarli xatti-harakatlari haqida yemas. Bu juda yetarli bo'lishi mumkin, lekin ... bu boshqaruv (LPR) yetarlicha sinov natijalarini sezmagani uchun tayyorlangan muhim ahamiyatga ega. Bu yerda xodimlarning erishish motivatsiya darajasini o'lchash uchun kompyuter usuli o'ynab sarflanadi, lekin foydalanuvchi eng va eng kamida sabablar ro'yxatlarini qarab, agar - ishchilar, albatta, "nima qilish" bilmaydi, jarayonida barcha ishtirokchilar ham juda yetarli ishlashi, aslida barcha belgilangan harakatlar o'sha investitsiya vaziyatni o'zgarmaydi.

Agar tashkilotchilar ham, rahbariyat ham natijalar bilan nima qilishlarini oldindan o'ylab ko'rmagan bo'lsalar, natijalar aniqlangandan keyin qabul qilingan qarorlar xodimlar uchun psixologik jarohatli, norozilik va rahbariyatga ishonchsizlik ortishiga olib kelishi mumkin. Ayni paytda hech narsa rasmiy ravishda o'zgarmagan kishilarga ham ta'sir qiladigan bu

umumiy salbiy ta'sir, tanlab qabul qilingan qarorlarning xodimlarning ayrim qismiga nisbatan unchalik katta bo'lmagan ijobiy ta'sirini butunlay ustun qo'yishi mumkin.

Boshqaruv qarorlarini proaktiv rejalashtirish zarurligi haqidagi tezis: test natijalariga asoslangan boshqaruv qarorlarining mumkin bo'lgan variantlari test ishtirokchilari uchun testning o'zidan oldin ham ochiq shakllantirilishi kerak.

Bunday tezis tor ma'nodagi psixometriya vakolatiga kirmaydi, lekin u tashkiliy psixologiya yutuqlarini hisobga oluvchi intizom bo'lmasdan o'z maqsadlarini amalga oshira olmaydigan keng tushunilgan "amaliy testologiya" vakolatiga kiradi.

Tashkilotda sinov-bu aniq chora-tadbirlar dasturi bo'lib, u keng ma'noda tushunilgan tashkiliy kontekstni hisobga olgan holda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan murakkab loyihadir. Shuning uchun "amaliy testologiya" bir tomondan psixometriyaning (gumanitar o'lchamlar fani), ikkinchi tomondan esa tashkiliy psixologiyaning aralash kombinatsiyasi sifatida rivojlanishi kerak va bo'ladi. Natijada, muayyan tashkilotning mavjud imkoniyatlariga mos keladigan murakkab ofis texnologiyalari yechimlarini ifodalovchi muayyan loyihalarni olishimiz kerak.

Nazorat savollari:

1. Testologiya tushunchasi qanday ma'noga ega?
2. Testlashtirish va testologiya tushunchalarni qanday bog'lash mumkin?
3. Testlashtirish obyekti va predmeti nimalardan iborat?
4. Testologiyaning predmeti va obyektini nimalar ifodalaydi?
5. Testologiya tarmoqlariga nimalar kiradi?
6. Sotsiologiyada qo'llaniladigan qanday baholash vositalari mavjud?
7. Tibbiyot testlarga namunalar keltiring.
8. Texnika testlarining o'ziga xosligi nimada?
9. Pedagogikada testlashtirish nima?
10. Psixologik testlashtirishning mohiyati.
11. Amaliy testologiya qanday fan?

2-MAVZU. TESTOLOGIYANING ASOSIY METROLOGIK TUSHUNCHALARI

Reja:

- 2.1. Psixometrik testlar va ularning kvazio'lchash testlardan farqi.
- 2.2. Test kaliti, meyorlari, quruq va standart test ballari.
- 2.3. Testologiyaning asosiy metrologik tushunchalari: 2.3.1. Ishonchlilik
- 2.3.2. Validlik.
- 2.3.3. Rerezentativlik.
- 2.3.4. Haqqoniylik

Tayanich so'zlar: psixometrika, kvazio'lchash testlari, haqqoniylik, rezentativlik.

Psixometrik testlar va ularning kvazio'lchash testlardan farqi.

Testologiyaning murakkabroq tushunchalariga murojaat qilganda "psixometrik testlar" tushunchasini aniqlamasdan ilojimiz yo'q. Psixometrik testlar bilan boshqa, faktik jihatdan o'lchab bo'lmaydigan testlar o'rtasidagi farqni aniq shakllantirish uchun testning psixometrik xususiyatlari tushunchasini qandaydir tarzda kiritish kerak. Psixometrik testning eng yuzaki farqlovchi xususiyati undagi vazifalar soni (va shunga mos ravishda test sessiyasining davomiyligi) hisoblanadi. Psikometrik testlar, odatda, 30 tadan kam bo'lmagan vazifalar, topshiriq, savolmulohazalardan iborat bo'lgani singari kvazio'lchash testlarida bu holat 15 savollaridan ko'p emas. Lekin, albatta, bu juda yuzaki va ishonchli farqlovchi xususiyat emas. Ba'zan hatto professional mo'ljallangan testlar ham ommabop jurnallarda ham taqdim etilishi mumkin, ammo uning mazmuni yetarlicha ifodalanmay umumiy ma'lumotlar bilan cheklanadi.

Masalan bu borada quyidagi so'rovnoma bilan bog'liq umumiy holatni keltirib o'tamiz.

Mashhur jurnallarda "testlar" bo'limini ochganingizda (yoki ommabop testlar bilan saytga tashrif buyuring), odatda test natijalari talqinida shunday xususiyat uchraydi: test balli shkalasidagi har bir intervalga ma'lum, ko'pincha yorqin va kulgili xulosa beriladi-tavsiyanoma. Masalan, mashhur "Fan va hayot" jurnalida ommabop test sifatida G.Ayzenkning "psixologik amaliyot" test-so'rovnomasi "Temperamentingiz qanday?" kategoriyasida chop etilgan, Jurnalning oxirgi sahifasida topishmoqlar, krossvordlar

va shu bilan birga testlar uchun transkript (to'g'ri javoblar) bor edi. Shunday qilib, men farqlash uchun quyidagi yo'l ifodani keltirish. G.Ayzenkning "Ekstraversiya-introversiya va neyrotizmni aniqlash testi" (EPI).

Sizning temperamentingiz?

0-12- introvert;

13-24-ekstravert.

Boshqa oraliq ko'rsatkichlar mavjud emas.

G.Ayzenkning "Ekstraversiya-introversiya va neyrotizmni aniqlash testi" (EPI)ning natijalarining to'liq tafsiloti ilmiy tadqiqotlarda quyidagi meyoriy ko'rsatkichni o'zida aks ettiradi. Quyida esa ushbu meyor keltiriladi.

Ekstraversiya — introversiya:

19-24 — yaqqol ekstravert,

15-18 — ekstravert,

12-14 — ekstraversiyaga moyillik,

12 — o'rtacha ko'rsatkich,

10-12— introversiyaga moyillik,

6- 9 — introvert,

0-5 — chuqur introvert.

Agar birinchi meyoriy ko'rsatkich bilan ikkinchi holatni taqqoslaydigan bo'lsa, psixometrik test va kvazio'lchash testlarining taofuti to'g'risida tasavvur hosil bo'lishi shubhasiz.

Jiddiy psixometrik (yoki metrologik) testlar statistik test normalariga asoslangan bo'lib, unda markaziy interval (o'rtacha qiymatlar, "norma koridori" deb ataladi) hech qanday aniq belgilangan izohni nazarda tutmaydi. Ushbu intervalni egallash bir vaqtning o'zida bir nechta butunlay boshqa narsalarni anglatishi mumkin:

- 1) Kamolot belgisi (inson, albatta, miqyosdagi qutblarga xos bo'lgan qutb xususiyatlariga ega emas, ya'ni temperament turi so'rovnomasi bilan bizning

misolimizda u mo'tadil ekstrovert va mo'tadil introvert bo'lib, uning xatti-harakati strategiyasini vaziyatga mos ravishda o'zgartiradi va juda moslashuvchan odam bo'lib chiqadi),

2) tashxisdan yashirin qobiliyat, ishonchli javob evaziga ikki mumkin strategiyasi namoyon bo'ladi: javoblar strategiyasi tasodifiy tanlash (to'g'ri yozilgan test anketalar to'g'ridan-to'g'ri va teskari savollar o'z ichiga olgan, bu strategiya har doim Markaziy intervalda o'rin olishga olib keladi) yoki muqobil va muvozanat javoblar strategiyasi haqiqiy-yolg'on (bu strategiya ba'zan "median" deb ataladi shkala markaziga olish uchun ongli oriyentatsiya).

Shunday qilib, professional mo'ljallangan, metrologik (normalangan) sinov shkalasida "ekstrovert — intravert" yoki "bilimdon-johil" kabi xulosalarning ikki xonali meyor emas, balki "ekstrovert-o'rta noaniq — introvert", "bilimdon-o'rta noaniq — johil" kabi uch xonali meyor qo'llaniladi.

Ko'rib turganingizdek, statistik normalangan shkalalar (normal taqsimotning Gaus modeliga asoslangan) asosida o'tkazilgan testlar uchun o'rta guruh ikkita ekstremal - 68 foizga nisbatan ancha ko'p mavzularni o'z ichiga oladi. Lekin u har qanday "qiziqarli tashxis" holda subyektlarining deyarli uchdan ikki qismini qo'yib juda zerikarli bo'ladi. Aks holda sinov uning asosiy ma'nosini yo'qotadi, chunki ommabop va maishiy test ustalari, uni ko'zga olmaydi-jurnalining xaridor (sayt mehmon) uchun qo'shimcha tijorat o'lja bo'lishi uchun testlardan foydalanadi.

Agar psixometrik testlar va ulardan oydalanuvichlarga quyiladigan talab asosida kvazio'lchash testlardan farqini yana bir bora tafovutlanishini keltirib o'tish mumkin.

Psixometrik o'lchash testlariga qo'yiladigan talablar

1. O'lchaydigan metodikalar (testlar).

a) maqsad, predmet va metodiklarni qo'llash sohasini bir xillikda shakllantirish;

b) testni o'tkazish tartibini foydalanuvchi uchun qulay, yaroqli bir

xil algoritm ko‘rinishiga keltirishi lozim (yoki kompyuterga);

v) qayta ishlash tartibi statistik asoslangan hisoblash metodlari va test ballarini standartlashtirishni o‘z ichiga olishi lozim (statistik yoki mezon test meyorlari bo‘yicha). Test ballari asosida chiqarilgan xulosalar ularning statistik ishonchlioligini ehtimollik darajasini ko‘rsatishi kuzatiladi;

g) test shkalalari representativligi, ishonchliligi, validligi qo‘llanilishi sohasi bo‘yicha tekshirilgan bo‘lishi kerak (standartlashtirilgan tadqiqotni amalga oshirish imkoniyatini beradigan);

d) o‘z-o‘zi haqida hisob berishga asoslangan tadbirlari natijalarning ishonchliligini nazorat qilish, ishonchsiz bayonnomalarni avtomatik saralash vositalari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak;

ye) metodikalarning barcha standartlarini davriy korreksiyalash maqsadida test ma‘lumotlarining bazasini shakllantirish.

2. Ekspertlar metodlari.

a) metodikaning maqsadi, predmeti va qo‘llanilish sohasini bir xil mazmunda shakllantirish. Ishonchli ma‘lumotlarning olishni zarur kasbiy bilimlarga ega bo‘lgan yetarlicha miqdordagi ekspertlar ta‘minlaydi;

b) yo‘riqnomalar bir xil mazmunga egaligi bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plami asosida ekspertlar sinovdan o‘tgan bo‘lishi kerak;

v) natijalarni qayta ishlash standartlashgan, har qanday ekspertga oraliq ma‘lumotlarni bir xilda talqin etish imkonini beruvchi bo‘lishi kerak;

g) metodikalarning barcha standartlarini davriy korreksiyalash, foydalanuvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash maqsadida test ma‘lumotlar bazasini shakllantirish.

Metodik vositalar psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mahalliy komissiyada attestatsiyadan o‘tishi kerak. *Testlardan foydalanuvchilarga qo‘yiladigan talablar:*

a) umumiy nazariy-metodologik tamoyillarni bilishi va amaliy qo'llashni; differensial psixometriya asosidan foydalanishni; psixodiagnostik adabiyotlarni tahlil; axborotlar va test vositalar bankini yaratish;

b) test ma'lumotlari asosida qabul qilingan qarorlar uchun, metodikalarning prognostik validligi va reprezentativlik mosligini ta'minlashga mas'ul;

v) diagnozning zarur ishonchlik darajasini testlashtirish yoki ekspert baholashni qo'llash bilan ta'minlash;

g) minimal yo'qotish maksimal ishonchlikka ega bo'lgan - eng samarali diagnostika asosida test batareyalarini ishlab chiqish;

d) qo'llanilish sohasida metodikalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish;

ye) metodikalarni standartlashtirish, ballarning hisoblash, ma'lumotlarni talqin etish, kasbiy yaroqlikni prognozlash talablariga rioya qilish;

j) psixodiagnostikaning metodik vositalarini to'g'ri foydalanish va tarqatish;

z), tekshiriluvchining shaxsiy ishonchi asosida olingan psixodiagnostik axborotlarni konfidentsialligini ta'minlash;

i) psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiquvchilarning mualliflik huquqlarini himoyalash bo'yicha talablarni bajarish.

Kvaziizo'lchashlar. Kvaziizo'lchashlar, o'zini o'zi anglashi uchun xizmat qiladigan, ammo ma'lum vaziyatlarga xos bo'lgan inson xulq-atvorini ilmiy o'lchash va prognozlash uchun baholash instrumenti emas.

Test kaliti, meyorlari, quruq va standart test ballari.

Testologiyada asosiy o'lchash tartibi testni juda ko'p o'tkazish (javoblarni yig'ish) emas, balki olingan javoblarni qayta ishlashdir. Test natijalarini qayta ishlashda ma'lum metrologik algoritm amalga oshiriladi, bu esa belgilangan javob protokolini test balli shkalasida ma'lum qiymat (nuqta) da ko'rsatishga olib keladi. Eng oddiy va eng tipik holatda

bu algoritm test topshiriqlariga to'g'ri javoblar yig'indisini hisoblashga tushadi. Bu holatda, bu miqdor qanchalik yuqori bo'lsa, o'lchangan mulk miqyosida test ballari qanchalik yuqori bo'lsa-da, bu bayonotning orqasida taxmin qilingan sababiy munosabatlar aksincha bo'lsa-da: o'lchangan xususiyat shkala bo'yicha qanchalik yuqori bo'lsa, u to'g'ri hal qilishga tayyor.

Test ballari hisoblashning bunday arziyas usuli foydalanuvchidan "test kaliti" degan tushunchani yashiradi va u umumbashariy tushuncha shaklida shakllanmaydi.

Testning kaliti — test ballari shkalasida javoblar bayonini ifodalovchi formula yoki algoritm.

"Kalit" haqida so'z borganda yanada universal ko'rinishi eng oddiy ta'lim testlarini emas, balki, masalan, shaxs xususiyatlarini yoki ijtimoiy munosabatni o'lchash uchun foydalaniladigan test-

so'rovnomalarini ko'rib chiqqanimizda paydo bo'ladi. Bu holda, tez-tez "teskari savollar" deb atalmish qoida ishlatiladi — bunday, qaysi

"teskari kalit" tizimlashtiriladi. Tavakkalchilik test so'rovnomasida teskari savol namunasi: "yetti marta o'lchab bir kesing", degan naqlga qo'shilasizmi?".

Testlar ustida ishlash jarayonida yana bir tushunchaga duch kelinadi.

Bu test meyorlaridir.

Test meyorlari-muayyan diagnostik topilmalar yoki boshqaruv qarorlari bilan bog'liq oraliqlarni (shkala maydonlarini) ajratuvchi test balli shkalasidagi chegaralar.

Test meyorlari-muayyan diagnostik topilmalar yoki boshqaruv qarorlari bilan bog'liq oraliqlarni (shkala maydonlarini) ajratuvchi test balli shkalasidagi chegaralar.

Xom ballarni standart ballarga aylantirish uchun formula yoki jadvalni qurish tartibi miqyos deb ataladi. O'lchashning eng oddiy usuli (eng keng tarqalgan) - namuna o'rtacha va standart og'ishning statistik parametrlariga asoslangan chiziqli standartlashtirish.

Testlarning psixometrik xususiyatlari

1. Ishonchlilik

2. *Validlik*
3. *Reprezentativlik.*
4. *Haqqoniylik.*

Metodikalarning ishonchliligi

Psixodiagnostik o'lchovlarning aniqligi va sinov natijalarining tashqi tasodifiy omillar ta'siriga barqarorligini aks ettiradigan texnikaning o'ziga xos xususiyati. Ishonchlilik, xuddi shu mavzular bo'yicha takroran tadqiqotlar olib borilganda, test natijalarining takrorlanishini anglatadi. Shunday qilib, aytish mumkinki, metodologiyaning ishonchliligi, olingan natijalar qanchalik ishonchli ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Psixologik tadqiqotlar natijalariga odatda omillar hisobga olinmagan katta miqdordagi ta'sir ko'rsatiladi (hissiy holat va charchash, agar ular o'rganilayotgan xususiyatlar doirasiga kirmasa; fizik omillar: tadqiqot olib borilayotgan xonaning yoritilishi, harorati va boshqa xususiyatlari; subyektlarni tekshirishga undash darajasi; eksperimentator shaxsining ta'siri). Tadqiqot holatidagi har qanday o'zgarish ba'zilarining ta'sirini kuchaytiradi va sinov natijasiga boshqa omillarning ta'sirini susaytiradi.

Demak, sinov tadqiqotlari natijalarining umumiy tarqalishi (o'zgarishi) ikkita sababning ta'siri natijasida keltirilishi mumkin: o'lchanadigan mulkning o'ziga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik va o'lchash tartibining beqarorlik omillari.

Keng ma'noda, sinovning ishonchliligi - bu test natijalarida subyektlarda aniqlangan tafovutlar o'lchangan xususiyatlardagi haqiqiy farqlarning aksi va tasodifiy xatolarga qay darajada taalluqli bo'lishining o'ziga xos xususiyati.

Ishonchlilik xususiyatlarini aniqlashning to'g'ridan-to'g'ri usullari bilan bog'liq bo'lgan tor ma'noda ushbu ko'rsatkich ko'rsatkichlari bir xil predmetlarga nisbatan uni dastlabki va takroriy foydalanish paytida olingan natijalarning moslik darajasi deb tushuniladi.

Turli xil (lekin tabiatda taqqoslanadigan) test obyektlarining turli xil to'plamlaridan yoki so'rov sharoitlarini boshqa o'lchovlaridan foydalangan holda turli vaqtlarda

Bir sifatni o'lchaydigan testni o'tkazishda test mavzularining bahosini taqsimlash, ideal holatda, normal taqsimot bilan mos keladi va bu holda tafovut "to'g'ri" bo'ladi (ya'ni aks

ettiradi) faqat o'lgangan atribut). Sinov ballari bo'yicha har bir fan ma'lum bir joyni egallaydi va nazariy jihatdan bu joy namunaning har bir a'zosi uchun doimiydir. Bunday holda, xuddi shu shaxslar tomonidan bir necha marta test o'tkazish, birinchi darajaga o'xshash baholash shkalasi bo'yicha joylarning taqsimlanishini ta'minlashi kerak. Keyin o'lchash vositasi sifatida texnik iloji boricha aniq va ishonchli.


Oddiy taqsimot - bu o'zgaruvchilarni nazariy taqsimlash turi. Bu nisbatan mustaqil omillar ta'siri ostida xarakteristikani (o'zgaruvchini) o'lchashda kuzatiladi. Undagi haddan tashqari qiymat juda kam, o'rtacha qiymatga yaqin.

Agar biz ideal holatdan uzoqlashsak, unda ikkinchi imtihon davomida predmetlarning haqiqiy baholari va reytinglari o'zgaradi va ularning taqsimlanishi birinchisidan boshqasiga farq qiladi. Bunday holda, yangi taqsimotning o'zgarishi o'lchov xatosining o'zgarishi qiymati bo'yicha boshlang'ichga nisbatan yuqoriroqdir. (O'lchov xatosi - bu individual o'lchovlarning aniqlik darajasining statistik o'lchovidir.) Sinovning ishonchliligi o'lchov xatosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u tasodifiy doimiy omillar ta'siri ostida o'lchanadigan qiymatning tebranishlarining mumkin bo'lgan oralig'ini ko'rsatadi.


Amalda, ishlatiladigan usullarning ko'pchiligida, 0,7-0,8 dan oshadigan ishonchlilik omillarining qiymatini olish kamdan-kam uchraydi. Olingan koeffitsiyent +0,75 dan past bo'lmaganda, usul ishonchli deb tan olinadi

- +0.85. Ishonchlilik sinovlari bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlar koeffitsiyentlarini beradi +0.90 yoki undan yuqori. (Korrelyatsiya koeffitsiyenti - normativ miqdoriy indikator bo'lib, soat o'zgarishi - 1.00 dan +1.00 gacha va ikki o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning kuchliligi va yo'nalishini baholaydi. Aloqaning etishmasligi nolga yaqin bo'lgan qiymatlar bilan ifodalanadi.)


Retest qoidasi-testlarni qayta o'tkazish orqali



Metodikalarni ekvivalent shaklidan foydalanish



Metodikaning toq va juft topshiriqlarga ajratish asosida ularning o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash



Metodika ishonchli sanaladi:

- amaliyotda qo'llanilayotgan metodikalarning kamchilik qismi 0,70-0,80 dan yuqori koeffitsiyentga ega bo'ladi;
- koeffitsiyenti 0,75-0,85 dan kichik bo'lmagan qiymatga ega bo'lganda ishonchli deb e'tirof etiladi;
- koeffitsiyenti 0,90 va yuqori bo'lganda esa testning ishonchliligi eng zo'r deb e'tirof etiladi.

VALIDLIK

- «Testning validligi — test nimani o'lchashi va u buni qanday yaxshi bajara olishini ifodalovchi tushuncha» A. Anastazi

VALIDLIKNI TA'MINLASH

- Mazmuniy validlikni aniqlash uchun ekspert metodidan foydalaniladi. Har doimgidek, ekspertizada quyidagi masalalar hal qilinishi kerak: kompetent ekspertlarni tanlash, ekspert guruhini shakllantirish, ekspertizani o'tkazish jarayonini tashkillashtirish vaboshqalar.
- Ekspertizaning spetsifik obyekti bo'lib, testning mazmuni xizmat qiladi. Ekspertlar uning psixik xususiyatlarga, testning validligini mazmuni sifatida e'lon qilinadigan testning mazmunini baholab berishlari zarur

Testlarning ishonchlilik va validligi o'rtasidagi munosabat

Test nazariyasining bosh muammosi natijalarni o'lchash bo'yicha bo'yicha ishonchli natijalarni aniqlashdir. Test o'tkazishdan ishonchli natijalar olishning psixometriya uchun ahamiyatga ega bo'lgan ikki yo'li bor: spetsifik va umumlashgan (generalizatsiyalashgan) [6,7].

Maxsus olingan haqqoniy natijalar ostida konkret test yordamida olingan aniq natijalar tushuniladi. Bu tushuncha fizik qiymatlarning o'lchamlarini aniqlashdagi kuzatiladigan aniq

baho tushunchasiga yaqindir. Bu yerda natijalarning haqqoniyililigiga o'lchash metodlarining aniqliligi bilan bog'liq qarash tushuniladi. U testlashtirish natijalarining

Testning haqiqatdan psixik xususiyatlar darajasini o'lchash qobiliyatini xarakterlash uchun validlik tushunchasidan foydalaniladi.

Testning validligi (validity) test o'lchashi mo'ljallangan sifatlar (xossa, qobiliyat, xarakteristika) o'lchashini ifodalaydi. Invalidlar yoki validlikka ega bo'lmagan testlar amaliy qo'llash uchun yaroqli emas.

Validlik bilan ishonchlilik o'zaro bog'liq tushunchalardir. Ularning o'zaro munosabatlarini quyidagi misol orqali izohlash mumkin. Ikkita A va V merganlar bor. A mergan 100dan 90 ochko, V mergan esa faqatgina 70 ochko to'pladi. A merganning ishonchliligi-0.90, V merganning ishonchliligi -0.70 ga mos keldi. Biroq A mergan doimo begona nishonlarga o'q otgan, shu sababli musoboqada uning natijalari hisobga olinmadi. Ikkinchi mergan esa nishonni to'g'ri tanlagan, ya'ni o'zi uchun belgilangan nishonga otgan. Bu yerda A merganning validligi 0 ga teng, V merganniki esa 0,70 ga teng. Agar A mergan ham o'ziga belgilangan nishonga o'q otib, 90 ochko olganida edi, uning validligi ham ishonchligiga teng bo'lar edi.

Agar u ba'zan nishonni chalkashtirsa, uning natijalarini bir qismi hisobga olinmaydi va A merganning validligi ishonchlilikdan past bo'ladi. Keltirilgan misolda ishonchlilikning analogi aniqlik, merganning bexato otganligi, validlikning aniqligi esa otishning aniqligi, ammo har qanday otish emas, balki qat'iy belgilangan o'zining nishoniga otganligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli u xoh mishenni, xoh komandasini o'zgartirmasin ishonchli otgan mergan validlikka ega bo'ladi. Testlar tarixida ma'lum holatlarda testlar bir xususiyatni o'rganishda invalidli deb hisoblansa-da, ammo boshqasi uchun u validlikka ega bo'lgan. Demak ishonchlilik validlik uchun zarur shart hisoblanadi. Ishonchsiz test validlikka ega bo'lmaydi. Aksincha, validlikka ega bo'lgan test ishonchli bo'ladi. Ishonchlilik validlikdan kichik bo'lmaydi, o'z navbatida validlik ishonchlilikdan ortiq bo'lmaydi.

Zamonaviy psixometriyada uchta asosiy validlik turlari ajratib ko'rsatiladi: mazmuniy (mantiqiy), empirik va konseptual.

Mazmuniy validlik (content validation).

U ko'pincha "mantiqiy validlik" yoki "aniqlash bo'yicha validlik" deb ham nomlanadi. Mazmuniy validlik mutaxassis tomonidan testning validlik deb bildirgan mulohazasi orqali aniqlanadi.

Mazmuniy validlik ko'rinib turgan, yuzadagi, tashqi validlik (face validity) dan farq qili kuzatiladi. Tashqi validlik- tekshiriluvchi nuqtai nazaridagi validlikdir. U tekshiriluvchida test yo'riqnomasi va materiallari bilan tanishishda shakllanadi, o'lchash predmeti haqidagi taassurotlarini ifodalaydi. Tashqi validlik testlashtirish jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki aynan u birinchi navbatda tekshiriluvchining tekshiruvga munosabatini aniqlaydi.

V.A.Avanesov tekshiriluvchilarda tashqi validlikni yo'qligi tufayli testni bajarishdan bosh tortish holati bilan bog'liq misol keltiradi. Bir sotsiologik tadqiqotda baliqchilik floti moryagi anketani to'ldirishdan bosh tortgan holat kuzatiladi. Bunga sabab anketa moryaklar uchun tuzilmaganligi sabablidir. Agar so'rovnoma dengiz atamaları bilan bog'liq tuzilganda edi, u holda tekshiriluvchilarda katta ishonch uyg'otgan bo'lar edi. Aynan ushbu holatning kuchiga ko'ra tashqi validlik ba'zan ishonchli validlik ham deb nomlanadi [2, 6, 11].

Oshkora, tashqi validlik mazmuniy validlik bilan har xil munosabatda bo'ladi. Bir holatda mazmuniy va tashqi validlik mos tushsa, boshqasida tashqi validlik mazmuniy validlikni himoyalash (yashirish) uchun niqob sifatida foydalaniladi. Shu maqsadda topshiriqning mazmuni va yo'riqnomasiga maxsus shakl beriladi. Bu asosiy obyektiv testlarni tuzishning taktik usuli sifatida foydalaniladi.


Oshkora-tashqi validlikdan farqli o'laroq mazmuniy validlik doimiy ravishda test materialini mazmunini haqqoniy baholashga munosabati bilan bog'liq, soxta o'lchashlar maqsadlariga emas. Mazmuniy validlikni aniqlash uchun ekspert metodidan foydalaniladi. Har doimgidek, ekspertizada quyidagi masalalar hal qilinishi kerak: kompetent ekspertlarni tanlash, ekspert guruhini shakllantirish, ekspertizani o'tkazish jarayonini tashkillashtirish vaboshqalar. Ekspertizaning spetsifik obyekti bo'lib, testning mazmuni xizmat

qiladi. Ekspertlar uning psixik xususiyatlarga, testning validligini mazmuni sifatida e'lon qilinadigan testning mazmunini baholab berishlari zarur. Bu maqsadda ekspertlarga testning spetsifikatsiyasi va topshiriqlari ro'yxati taqdim etiladi. Agar aniq topshiriqlar to'liq ravishda mos kelsa, u holda ekspert uni testning mazmuniga muvofiq sifatida baholaydi. Aks holda u topshiriqlarni brak hisoblaydi va yozma o'z bahosini asoslaydi. Agar ekspertlar orasidan topshiriqni bahosida kelishmovchilik kelib chiqsa, u holda ekspertlarning yozma tushuntirishlari bilan anonim tarzda tanishib chiqadilar, buning natijasida ekspertiza qaytadan o'tkaziladi.

Empirik validlik

Empirik validlikning g'oyasi testning ma'lum qobiliyatini aniqlashda indikator yoki psixik xususiyatlari yoki inson xulq-atvor shakllarini qat'iy aniqlashni bashorat qiluvchi bo'lib xizmat qilishdan iborat [2,6,7,11]. Testning bu xususiyatini o'lchash uchun test natijalarining tashqi mezonlar bilan korrelyatsiyasi koeffitsiyenti hisoblab topiladi- $R(X,K)$. Mezon sifatida testni validlashtiruvchi, psixologik xarakteristikalarini mustaqil va shubhasiz o'lchovchi, har qanday ko'rsatkich ishtirok etishi mumkin. Mezon tanlash haqidagi masala bu ko'rinishda asosiy validlik hisoblanadi. Mezon tanlashda validlikning miqdoriy va sifati baholashga bog'liq bo'ladi. Shartli ravishda uch guruh mezonlarni ajratish mumkin: ekspertlar, eksperimental va "hayotiy".

EMPIRIK VALIDLIKNI TA'MINLASH MEZONLARI:



Ekspert mezon shaxs xususiyatlarini mustaqil o‘lchash uchun ekspert baholashdan foydalanishni taqozo etadi. Garchi shaxs xususiyatlarini o‘lchashda oxirgi vaqtlarda ekspert metodiga katta ahamiyat berilayotgan bo‘lsa-da, shunga qaramay testning validligini ta‘minlashda ekspert baholashni qo‘llash yetarlicha ishlab chiqilgan unifikatsiyalashgan tartibga, ishonchli va barqaror axborot olishni taqozo etishga ega emas.

O‘quvchilar uchun mo‘ljallangan testlarni validlashtirishda ekspert sifatida odatda o‘qituvchilardan foydalanadilar. Biroq maxsus tadqiqot ko‘rsatkichlari sifatida o‘qituvchilarning ekspert baholari past ishochlilik va validlikka ega. Ayrim o‘qituvchilar ishonchli ekspert sifatida ishtirok etishlari mumkin. Bu ularning baholari ayniqsa subyektiv yanglishishlarga duchor bo‘lganligi kuchli darajada bog‘liqdir (simpatiya va antipatiyaga, o‘qituvchiga ota-onalar bilan munosabatini ko‘chirish, shaxs sifatidagi o‘zlashtirishi bilan).

Xatolarning boshqa sababi baholanayotgan sifatning mazmunini yetarlicha tushunmasligidan iborat. Test va ekspert bahosi uchun hajm bo‘yicha mos tushuncha qo‘shish kuzatiladi. Aks holda yuqori korrelyatsiyaga mo‘ljall olish mumkin emas.

Agar shaxsning qandaydir xususiyatini o‘qituvchi baholashi oddiy talab etilsa, bu nomutaxassislar oldida turgan va hatto ko‘p psixologlar uchun qiyin vazifa hisoblanadi.

Boshlanishida validlashtiriladigan testni o'lchash uchun o'qituvchiga psixik hususiyatning mazmunini tushuntirish, uni topshiriq tarkibi va spetsifikatsiyasi bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Faqat shundan keyingina o'qituvchidan o'quvchilarga ekspert baho qo'yish so'raladi. Bahoni 7 yoki 9-balli shkalada qo'yish kerak bo'ladi. Birinchidan, baho ancha aniq qilinadi, ikkinchidan o'lchanayotgan sifatga o'zlashtirish bahosini mexanik ko'chirish qiyin bo'ladi.

Amaliyotda ko'proq eksperimental mezonlar keng tarqalgan. Bu holatda validlashtirish mezoni sifatida bir vaqtning o'zida va mustaqil testlashtirish tekshiriluvchilarni boshqa testlar bilan birgalikda foydalaniladi. Ikki qiymat o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti o'zaro empirik validlik hisoblanadi. Uning qiymatlari o'lchashning mazmuni va testning ishonchliligiga bog'liqdir.

Validlik turlari:

- Oshkora validlik
- Konkurent validlik
- Prgonostik validlik
- Differensial validlik
- Mazmuniy validlik
- Konstrukt validlik

OSHKORA VALIDLIK

O'LCHASH REJALASHTIRGAN
XUSUSIYATNING
O'LCHANAYOTGAN
MOSLIGINI BILDIRUVCHI
MUNOSABAT ИФОДАСИ.

SINALUVCHINING
MUNOSABATIGA TAYANILADI

TESTNING BELGILANGAN
O'LCHASHGA MOSLIGINING
UMUMIY BAHOLANISHI

Nazorat savollari

1. Testologiyaning asosiy metrologik tushunchalarini nimalar tashkil etadi?
2. Testning kaliti nima?
3. Test meyorlari nima?
4. Ishonchlilik nima?
5. Testlarning ishonchliligini ta'minlashning qanday qoidalari bor?
6. Ishonchlilik darajalari.
7. Validlik nima?
8. Validlikning turlari nima?
9. Validlik qanday ta'minlanadi.
10. Ishonchlilik va validlikning ta'minlashda nimalarga tayaniladi?
11. Rerezentativlik nima?
12. Haqqoniylik nima?

3-MAVZU. TESTLAR KLASSIFIKATSIYASI

Reja:

- 3.1. Ta'lim, tibbiy, kasbiy va psixologik testlar.
- 3.2. Testlar va topshiriqlarni klassifikatsiyalashning asoslari.
- 3.3. Proyektiv metodikalar bilan testlarning qiyosiy tahlili.

Tayanch tushunchalar: *test, klassifikatsiya, pedagogik, psixologiya,*

3.1. Ta'lim, tibbiy, kasbiy va psixologik testlar.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan testlar ta'lim testlari deb ataladi. Ushbu testlar klassifikatsiyasi bo'yicha ham o'ziga xos yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari xususida to'htalib o'tamiz

Testlarning klassifikatsiyasi

Tesnlr har xil alomatlariga ko'ra klassifitsiya qilinadi:

□ maqsadiga ko'ra —axborot, diagnostik, o'rgatuvchi, motivatsion, attestatsion;

□ yaratilish tartibiga ko'ra — standartlashgan , standartlashmagan;

□ topshiriqlarni shakllantirish usuliga ko'ra — determinantlashgan, stoxastik, dinamik;

□ o'tkazish texnologiyasiga ko'ra — qog'oz, optik aniqlashdan foydalaniladigan qog'oz, tabiiy sharoitda olingan, maxsus apparatlardan , kompyuterlardan foydalanib;

□ topshiriq shakliga ko'ra — yopiq tip , ochiq tip, muvofiqlikka ega, izchil tartiblangan;

□ qaytar aloqa bo'yicha –an'anaviy va moslashtirilgan. **I.Maqomiga ko'ra test turlari:**

1.1.Standart va standartlashmagan. **II.**

Pedagogik xarakteriga ko'ra

1. Adaptiv
2. Integrativ
3. Meyoriy
4. Mezonli **III. tip va shakliga ko'ra**

1.Ochiq testlar

- a. Bitta to‘g‘ri javobli testlar
- b. Bir nechta to‘g‘ri javobli testlar
- c. Mutanosiblik testlari
- d. Izchillik testlari

2. Yopiq testlar

- a. To‘ldiruvchi testlar
- b. Davom ettiriluvchi testlar

III. Murakkablik darajasiga test to‘rlari

- 1. Oddiy testlar (bilim)
- 2. Reproduktiv testlar (bilim, ko‘nikma va malaka).
- 3. Produktiv testlar (bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil fikr)

IV. Ijodiy-izlanuvchanlikni baholash testlari (bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil fikr)

V. Mazmuniga ko‘ra testlar

5.1. Gomogen testlar

5.2. Getrogen testlar *An’anaviy test*

An’anaviy test har xil javob variantli savollardan tashkil topgan. Har bir savol ma’lum ballga baholanadi. An’anaviy testning natijasi to‘g‘ri berilgan javobli topshiriqlar miqdori bilan belgilanadi.

Adaptiv test

Testning asosiy turlaridan biri bo‘lib, navbatdagi har bir topshiriq oldingi topshiriq javobiga bog‘liq ravishda tanlanadi. Ushbu testning topshiriqlari ketma-ketligi va miqdori dinamik tarzda aniqlanadi.

Kompyuter adaptiv testning an’anaviy testdan eng muhim afzalligi quyidagilardir:

□ testdan o‘tayotganlarni bilim darajasi ostida adaptatsiyalashuv imkoniyati (haddan ortiq murakkab yoki haddan ortiq oddiy savob berishga to‘g‘ri kelmaydi);

□ haqqoniylik darajasini yo‘qotmagan holda topshiriqlar miqdorining qisqarganligi hisobiga vaqt va kuch tejiladi (testning uzunligi 60% gacha qisqaradi).

Namunadagi test topshiriq shakllari

Javoblarni tanlash topshiriqlari (yopiq topshiriqlar)

1. Bitta to‘g‘ri javobni tanlashga asoslangan topshiriqlar Matndagi so‘zni terishda ular bir birida.....orqali ajratiladi. a) ikki nuqta;

- b) vergul;
- v) oraliq;
- g) nuqta .

2. Bitta noto‘g‘ri javobni tanlash topshirig‘i

3. Muvofiqligini o‘rnatish topshiriqlari

Shaxs psixologiyasi muammosini o‘rgangan olimlar bilan ularning nazariyalari o‘rtasidagi moslikni toping:

<i>Olimlar</i>	<i>Shaxs nazariyalari</i>
A.Adler	Analitik psixologiya
K.Yung	Transakt tahlil
E.Erikson	Individual psixologiya
E.Bern	Ego-psixologiya

4.Izchilligini ta‘minlash testlari

B.G.Ananev klassifikatsiyasiga bo‘yicha psixologiya fani metodlari ketma-ketligini aniqlang:

1) talqin etish metodlari 2)tashkiliy metodlar 3) empirik metodlar 4) eksperiment natijalarini tahlil etish metodlari

Shaxs so‘rovnomalarini yaratilgan davriga ko‘ra ketma-ketligini ta‘minlang

5.Bir nechta to‘g‘ri javobni tanlash topshiriqlari

6.Ketma-ketligini o‘rnatish

6.Ochiq javob berish topshiriqlari

1. _____
2. _____

Test topshiriqlari

Test topshirig‘i, texnologik, shakllar, mazmun va statistik talablarga javob beradigan pedagogik testning tarkibiy qismidir:

- ma‘lum qiyinlik;
- test ballarining yetarlicha variatsiyasi;
- barcha test bo‘yicha ballar bilan topshiriqlar ballarining ijobiy korrelyatsiyaga egaligi.

Pedagogik testlashtirishning funksiyalari

Pedagogikada testlashtirishning o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uchta funksiyasi mavjud: diagnostik, o'rgatuvchi va tarbiyaviy.

□ Diagnostik funksiyasi o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini yoritishdan iborat. Bu testlashtirishning eng asosiy va muayyan funksiyasidir.

□ Testlashtirishning o'rgatuvchilik funksiyasi o'quv materillarini faol o'zlatirishiga yo'naltirishdan iborat. Buning uchun ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini faol o'zlatirishlarini ta'minlash uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi vositalardan foydalanish lozim bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning mustaqil test topshiriqlari tuzishga jalb etish, mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari uchun taxminiy topshiriqlarni taqdim etish, test topshiriq natijalarini hamkorlikda tahlil qilish orqali o'rgatuvchilik funksiyasi amalga oshiriladi.

□ Tarbiyaviy funksiya test nazoratining davriyligida va ilojsizlik sharoitida namoyon bo'ladi. Bu funksiya ta'lim oluvchilarni Eto dissipliniruet, organizuet i napravlyayet deyatelnost uchasixsya, pomogayet viyavit i ustranit probeli v znaniyax, formiruet stremleniye razvit svoi sposobnosti.

Testli va ekspertli reytingli metodikalar

- Reyting balli uning vujudga kelish sababi haqida hech qanday ma'lumot taqdim etmaydi.
- Reytingli baholash metodikasi faqat o'zlashtiruvchi va o'zlashtirolmaydigan ta'lim oluvchilarni saralashni ta'minlaydi.


Testli va ekspertli diagnostika metodikalar

- Aniq ta'lim oluvchidagi diqqat tanqisligi
- Ko'rish xotirasi muammosi
- Fonematik eshitish va nutqdagi nuqsonlar **TESTLAR VA KUZATISH**
- Kuzatish — bu barcha baholash ekspert texnologiyalari uchun tayanch tushuncha
- Suhbat va og'zaki imtihonlarda intervyur va egzamenator jonli kuzatishni amalga oshiradilar.
- Test bilan kuzatish o'rtasidagi tafovut: birlamchi ma'lumotlarni to'ldirish uchun kuzatish lozim.
- Aynan testni bajarishda esa kuzatuvchiga hojat yo'q.

TESTLAR VA SO‘ROVLAR

Mulohaza va baho subekti	Mulohaza va baho obekti	Ball	Nomlanish
Respondent	Boshqa odam	Boshqa inson	So‘rov
Respondent-sinaluvchi	Respondent o‘ziga	Respondentning o‘ziga	Test-so‘rov
Sinaluvchilar	Topshiriqlar	Sinaluvchining o‘zi	Test

Testlarning klassifikatsiyalash testologiyaning asosiy muammosi



Ta'lim testlari

- Bilimning predmetli mo'ljallari: testli reytingli metodikalar

1.METODIKALARNING PREDMETLI TIPOLOGIYASI

- PEDAGOGIK TESTLAR
- PSIXOLOGIK TESTLAR
- Tiplar va qirralarni o‘rganish testlari: MMPI, 16PF, NEO-PI («Katta beshlik»), CPI, EPI;
- Qobiliyatlar- Veksler, Amtxauer, Raven, Vanderlik va boshqa intellekt testlari;
- Holat (funksional, emotsional)
- Munosabat (ustanovkalar, baholar)

2.OPERATSIONAL-TEXNOLOGIK KLASSIFIKATSIYA

- Sinaluvchi bilan diagnostning subektiv tajribasi
- Psixofiziologik qayd etiluvchi xulqiy testlar
- Obektiv testlar
- Testlar-so‘rovnomalar
- Shkalalashtirish metodikalari
- Proyektiv texnikalar

Psixologik testlar klassifikatsiyasi

Psixologik amaliyotda qo‘llaniladigan metodiklarni tizimlashtirish, ularning xususiyatlariga ko‘ra tatbiq etish, metodikalarini qo‘llash imkoniyatlariga ko‘ra farqlash lozim bo‘ladmi

Psixologik testlar klassifikatsiyalashda turli xil asoslarga tayaniladi. Quyida testlarni klassifikatsiyasiga alohida to‘htalib o‘tamiz. Klassifikatsiyalashda testlar va o‘rganish texnikasini barchasini kiritib bo‘lmaydi. Ammo kundalik amaliyotda testlarni qo‘llashda quyidagi xususiyatlarga ko‘ra tatbiq etiladi.

Birinchi guruhga obektiv metodikalar kiritiladi. Ushbu guruhning birinchi tarkibiy guruhchasi shaxslilik testlari (intellekt xususiyatlariga)

Harakat testlari (maqsadli shaxslilik testlari):

1. R. Amtxauerning “Intellekt tuzilishi testi (1953). (Uning modifikatsiyalashtirilgan varianti — tafakkur xususiyatlarini tadqiq etish metodikasi deb nomlanadi)

2. Ravenning “Progressiv matritsalar” (intelekt darajasi va xususiyatlarini baholash) (Dj. K. Raven, 1936).

3. Vizual-motor geshtalt-test (ko‘rish-motor koordinatsiyani o‘rganish testi) (L. Bender, 1938).

4. Vizual retensiya testi (ko‘rish xotirasi) (A.Benton, 1952).

5. Vigotskiy — Saxarov testi (kattalar va bolalarda tushunchalarni shakllantirish) (L. Vigotskiy; L. Saxarov, 1927).
6. Vekslarning xotirani o'rganish shkalasi (WMS) (1946).
7. Korrektura sinovi (diqqatning konsentratsiyasi, barqarorligi) (B. Burdon, 1895).
8. Meylining xotira test (ko'rish va eshitish xotirasi).
9. Shkala otsenki Ozeretskiyning baho shkalasi (harakat malakalari va motorikaning alohida komponentlarini baholash) (N.I. Ozeretskiy, 1923).
10. "Burama chiziq (spiral)" testi (harakat funksiyalarini baholash).
11. Lineogrammaning testi (diqqatning ko'chishi, psixik motor funksiyalar, aqliy funksiyalarning plastikligi).
12. Tanlashdagi murakkab reaksiya (SRV) (diqqat, qisqa muddatli xotira, kombinatorlik qobiliyatlari).
13. Kombinatorlik qobiliyatlari.
14. Miqdoriy munosabatlar (mantiqiy-matematik qobiliyatlar).
15. Qonuniyatlarni o'rnatish (diqqat, xotira, mantiqiy tafakkur).
16. "Naqshlar" (xayol).
17. "Figuralar" (obrazli xotira).
18. Qizil-qoralar jadvali (modifikatsiya) (diqqatni taqsimlash).
19. Chalkash chiziqlar (diqqatning barqarorligi).
20. "Sensor-motor koordinatsiya" testi.
21. "Axborot izlash" (qisqa muddatli xotira, diqqat).
22. "Eshitish nutq xotirasi" testi.
23. "Lug'at" (individual tezaurusni, saviyani o'rganish) testi.
24. Test "Xulosa chiqarishi " (mantiqiy tafakkurni baholash).
25. "Kompaslar" (fazoviy xayol) testi.

Vaziyatlar testlari (vaziyatlarda qaror qabul qilish):

1. Izchil dinamik baholash metodi (IDBM) (Shvedin B.Y., 1989).
2. "TEST", "RITM" avtomatlashtirilgan vaziyatli diagnostika o'yini (7 subteslardan iborat: holat, intellekt, o'yin) (Noss I.N., Suslov YE.V., 1990-1992).
3. "Tanlash dilemmasi" metodikasi (12 ta hayotiy vaziyatlar: xulqatvor strategiyasini tanlash —qaror qabul qilish usullari) (N. Kogan, M. Uollelch).

Birinchi guruhning ikkinchi guruhchasiga tegishli testlar intellekt testlari (intellekt darajasini) qiritilgan.

Qobiliyat testlari:

1. Vekslarning intellektning o'lash shkalasi (WAIS) (D. Veksler, 1946).
2. **Murakkablashib borish testi (Polyakov K., Glushko A., 1986). Raven testining modifikatsiyalashtirilgan –intellekt darajasini baholash.**
3. Madaniy muhitdan xoli intellektni o'rganish testi (CFIT) (R. Kettell, 1958).
4. Rossolimning psixologik profili (G.I. Rossolimo, 1909).
5. Stanford-Binenig aqlmy taraqqiyot shkalasi (L.M. Termen, 1916).
6. Umumiy qobiliyatlar testlari batareyasi (GATB) (professional mezonlarga yo'naltirilgan holda intellektni baholash testi).
7. Maktab o'quvchilarining aqliy taraqqiyoti baholash testi — (6-8 sinf o'quvchilarining intellekt taraqqiyoti darajasini o'rganish) (Umumiy va pedagogik psixologiya ITI). **Erishganlik testlari:**

1. «Arifmetik hisob» (arifmetik qobiliyatlar testi). testi
2. «Uskunalar shkalasi» (uskunalar ko'rsatkichlariga mo'lajallanganlik) test
3. «Koordinatalar» (professional qobiliyatlar) testi.

Mezonli –mo'ljalli testlar:

1. Intellektual qobiliyatlarni o'rganish testlari (turta subtestdan iborat: "Joy reifini tahlili"; "yuz mimikasi bo'yicha emotsional holatlar tahlili"; "gazetadagi siyosiy testlarning tahlili"; "Tartibni egallash va buyruqlarga javob berish qoidalari ") (Jilnikov I.D., 1990).
2. "Ta'limga qobiliyatlilikni aniqlash" testi —TQT (Noss I.N., 1990).
3. Psixosemantik tahlil texnologiyasi— "Faoliyatning semantik tahlili" (TPA-SAD) (Noss I.N., 1990).
4. Obektni mos tarzda xarakteristiklash testi — TAX (Noss I.N., 1992).

Ikkinchi guruh metodikalar subektiv xarakterga ega bo'lib, ular tekshiriluvchining o'zi to'g'risida ma'lumot va axboroti asosida o'rganadi.

Ushbu guruhga taalluqli metodikalar guruhchasi shaxslik va maxsus so'rovnomalardan iborat. **Xarakterologik va klinik so'rovnomalari:**

1. Minnesotining ko'p omilli shaxsni o'rganish so'rovnomasi — MMPI (S. Xatuey, Dj. Makkinli, 1940).
2. Bexterev institutining shaxslilik so'rovnomasi — LOBI (xronik va somatik kasalliklar bilan og'ringan bemorlarni diagnostika qilish va davolash) (1983).

3. Michigan alkogolizmning skrining-testi (alkogolizimga ilk alomatlarini o'rganish) (M. Selzer, 1971).
4. Patoxarakterologikdiagnostik so'rovnoma (Lichko YE.A., 1970).
5. "O'n olti omilli shaxsni o'rganish so'rovnomasi" — 16pf (R. Kettell, 1950).
6. Shmishek so'rovnomasi (Aksentuatsiyaning 10 tipini aniqlash) (G. Shmishek, 1970).
7. Yumoristik jumlar testi — TYUF (lichnostniye osobennosti, svyazanniye s ponimaniyem yumora) (Shmelev A.G., Boldireva V.S., 1982).
8. O'zaro munosabat so'rovnomasi (o'z-o'ziga munosabatni kompleks omillarini o'rganish testi) (Stolin V.V., 1985).
9. Ayzenk shaxsliligi so'rovnomasi — EPI-63;EPQ-69 (G. Ayzenk, S. Ayzenk, 1963, 1969).
10. Shaxsning xarakterologik aksentuatsiyasi va nerv-psixik beqarorlik - XAL-NPN (Shpachenko D.I., 1986).
11. Shaxsning ko'p omilli tadqiq etish metodikasi — MMIL (377, 383) (Bexterev instituti tomonidan ishlab chiqilgan).
12. "Moslashuvchanlik" ko'p darajali shaxsni o'rganish so'rovnomasi — MLO-AM (Maklakov A.G., Chermyanin S.V., 1990).
13. O'z-o'zini namoyon etish so'rovnomasi (60) (Djurard S.M., 1958) S. Djurardning modifikatsiyalashgan so'rovnomasi.
14. Keysrning so'rovnomasi (xulq-atvorning tipik usullari va shaxs xarakteristikasini baholash (70) (publ. 1995).
15. "Nerv-psixik beqarorlik-aksentuatsiya" shaxslilik so'rovnomasi — NPB-A (Polyakov K.N., Glushko A.N., 1985).
16. Psixodiagnostik test — PDT (MMPI, 16pf metodikalari asosida ishlab chiqilgan) (Melnikov V.M., Yampolskiy L.T., 1985).
17. Anket-prognoz (Baranov A.V., Chermyanin S.V.).
18. Strelya so'rovnomasi (temperamentning tipini aniqlash) (Strelyau Y., adapt.: MGU, 1987). **Motivatsion xarakterdagi so'rovnomalar:**
 1. Erishganlikka ehtiyoj so'rovnomasi— PD (erishganlik motivatsiya xususiyatlari) (Orlov Y.M., 1978).
 2. Erishganlik motivatsiyasi shkalasi — AMS (T. Gesme, R. Nigard, 1970).
 3. Tavakkalchilikka qo'llab-quvvatlashga erishganlik shkalasi Shkala dostijeniye s predpochteniyem riska — MARPS (A. Mexrabian, 1968).
 4. Xermans so'rovnomasi (10-16 yoshli (1971) va katta yoshlilarning motivatsiyasini baholash (1976) (X. Xermans, 1970).

5. Differensial-diaagnostik so'rovnoma— DDS (shaxs yo'nalganligini baholash) (Klimov YE.A., 1972).

6. Professional shaxslilik so'rovnomasi — (yoshlarning harbiylik kasbiga yo'nalganligini baholash) (Petrov P.V., Rostunov A.T., 1985).

7. Shaxs yo'nalganlik so'rovnomasi (The Orientation Inventory; modifikatsii: "Lichnostnaya napravlenost", "Sennostniye oriyentatsii lichnosti", "Oriyentirovochnaya anketa") (M. Bass; adaptatsiya V. Smekal, M. Kucher, CHSSR, publ. 1977).

8. Maqsadga erishganlikni motivatsiyasini baholash shkalasi (T. Elers).

9. Omadsizlikdan qochish-o'zini o'zi himoyalash motivatsiyasini baholash metodikasi (T. Elers; adaptatsiya M.A. Kotik, 1981).

10. Qo'llab-quvvatlash motivatsiyasi so'rovnomasi (D. Kraun, D. Marlou, adaptatsiya: Marishuk V.L. i dr., 1984).

11. Affiliyatsiya motivatsiyasini o'lchash metodikasi (A. Mexrabian).

12. Qadriyatlar yo'nalishini diagnostika qilish metodikasi (M. Rokich).

13. Shaxslik motivatsion so'rovnomasi — MLO (Kulagin B.V., 1981).

14. Shaxs yo'nalganligi so'rovnomasi (POI); adapt. MGU v 1987.

Emotsional-irodaviy sifatlarni baholash so'rovnomasi:

1. Bezovtalaikni namoyon bo'lishi shkalasi — MAS (J. Teylor, 1953).

2. Lokus nazorat shkalasi (Locus of Sontrol Scale), modifikatsii: USK, SLK, Dj. Rotter, 1950).

3. Subektiv nazorat darajasini o'rganish so'rovnomasi — USK (Bajin YE.F., Golinkina YE.A, Etkind A.M., 1984).

4. Nazoratni subektiv lokallashtirish test-so'rovnomasi — SLK (Panteleyev S.R., Stolin V.V.).

5. O'z-o'zini irodaviy boshqarish so'rovnomasi — VSK (Zverkov A.G., Eydemman YE.V.).

6. Shaxsning kommunikativ bezovtalanishni tadqiq etish metodikasi (KLT).

7. Reaktivlik va shaxslilik bezovtalanish shkalasi — RSHBSH (Spilberger CH.D., 1966; adapt. Y.L. Xanim, 1976).

8. O'zining funksional holatini differensial baholash test— SAN (Doskin V.A., Lavrenteva N.A., Miroshnikov P.P., Sharay V.B., 1977).

9. O'zining emotsional holatini baholash so'rovnomasi (A. Uesman, D. Riks).

10. O'ziga munosabatini tadqiq etish metodikasi (Q-sortirovka), 1990.

11. O‘ziga ishonchni baholash metodikasi (Reyzas S.A., o‘publikovana v SSSR, 1990).

12. O‘z-o‘ziga munosabat testi—OSO (Stolin V.V., Panteleyev S.R., 1987).

13. Tavakkalchilik shkala — RSK (jismoniy xavf sharoitidagi tavakkalchilikka) (G. Shubert).

Kommunikativ sifatlarni baholash so‘rovnomasi:

1. Kommunikativ va tashkilotchilik layoqati — KOS (Sinyavskiy V.V., Fedoroshin V.A.).

2. “Boshqaruvchilik faoliyatiga umumiy qobiliyatlar” ni baholash testi — OSUD (Kudryashova L.D., 1986).

3. “O‘zaro ta’sirlashuv usulin shaxslararo munosabat diagnostikasi” anketa yoki «Nizoli vaziyatlardagi ta’sir tiplarini baholash» (Tomas K.N.).

4. Qadriyatlar yo‘nalganligi birligini baholash — SOYE (baholash obektini sifatalrini ranglashtirish) (Petrovskiy A.V., 1979).

5. "Jamoani o‘zini o‘zi sotsial-psixologik attestatsiya qilish metodikasi " so‘rovnomasi (Nemov R.S., 1982).

6. Jamoaning sotsial-psixologik rivojlanganlik darajasin aniqlash metodikasi (Nemov R.S., 1980).

7. Birlamchi ishlab chiqarish jamoasining sotsial-psixologik o‘rganish so‘rovnomasi (Lutoshkin A.N., 1977).

8. Sotsial-psixologik muhitni diagnostika qilish ekspressmetodikasi (Shalito A.Y., Mixalyuk O.S., 1990).

9. Sotsial-psixologik muhitni diagnostika qilish metodikasi ("Jamoadagi sizning ishingiz" anketasi) (Parigin B.D., 1981).

10. Guruhdagi psixologik atmosferani baholash metodikasi (F. Fidler, adaptatsiya Y.L. Xanina, 1980).

11. Guruhga mansublikdan qoniqqanlikni baholash metodikasi (Golovanovskiy A.Y., 1980).

12. Mehnatdan qoniqqanlik so‘rovnomasi (Zaxarov V.P., 1982).

13. Mehnatning jozibasini o‘rganish so‘rovnomasi (PTR-I) (Snetkov V.M., 1990).

14. Guruh a’zolidan qoniqqanlikni baholash metodikasi (Krichevskiy R.L., Smiryanova M.M.).

15. Shaxslararo diagnostika metodikasi — ICL (T. Liri, R. Laforj, R. Sakzek; o‘publikovana v Rossii v 1978).

16. Ishlabchiqarish nizolarini diagnostika qilish metodikasi (Shurkin S.M.).

17. **Sotsiometriya (Dj. Moreno, 1951).**

Anketalar guruhchasi Ishga
(o‘qishga) normzodlar anketasi va boshqalar.

Faol va retrospektiv intervyu

1. Biografik faktlar bo‘yicha suhbat.
2. Testlashtirish ma‘lumotlarini aniqlashtirish bo‘yicha suhbat.

Biografik metodikalar guruhchasi

Konyuxovning ofitserni biografik anketasi (1986) va boshqalar.

Ma‘lum vaziyatlardagi xulq-atvorni bayoni guruhchasi

1. Izchil dinamik baholash metodi (Shvedin B.Y., 1989).
2. “Esdalik” mavzusiga bayon va boshqalar.

Germenevtika metodikalari guruhi

1. Fiziognomik kuzatish testi. (1995).
2. Insonning reprezentativ tizimi strukturasi baholash (formalizatsiya — Noss I.N., 1995), neyro-lingvistik dasturlash fragmenti (R. Bendler, Dj. Grinder).

3. Shaxsning fiziognomik bahosi — FOL (formalizatsiya I.N. Nossa, 1996).

4. Klinik suhbat.
5. Maqsadga yo‘naltirilgan kuzatish.

Uchinchi guruh testlarga proyektiv metodikalar kiritilgan. Ular tekshiriluvchi tomonidan shaxsni o‘zini proyektlashirishi asosida kuchsiz strukturalashgan stimullar yordamida o‘rganishni amalga oshiradi.

Mazkur guruh testlari ham bir nechta guruhchalarga ajratilgan bo‘lib, ularning har biri to‘g‘risida quyida ma‘lumotlar keltiriladi.

Konstitutiv xususiyatli proyektiv metodikalar (strukturirlashgan, stimullarning rasmiylashtirish, oformleniye stimuloval, ma‘no berish).

1. Assotsiatsiyali so‘z testi (stimul-so‘z: assotsiatsiya-so‘z) (F. Galton, 1879).
2. Rorshax testi (noaniq siyoh dog‘laridagi timsollar orqali shaxs proyektini ko‘rish) (G. Rorshax, 1921).
3. Suratlarini moslashtirish (aranjirovkalashtirish) (suratlarni ma‘lum izchilikda joylashtirish va hikoya tuzish) (S. Tomkinson, 1957).
4. “Lug‘at” testi (individual tezarus testi, saviyaning tadqiq etish).

Konstruktiv proyektiv metodiklar guruhchasi. Ushbu guruhchaga taalluqli metodiklar ma'noli shaklni hosil qiladigan detallar orqali shakllantiriladi.

1. Dunyo test (predmetlarnig 232 modellari, 15 ta kateygoriya bo'yicha taqsimlashtirilgan: uy, daraxt, hayvonlar vaboshqalar. Predmetlarni tanlash asosida "o'z olami" yaratiladi. (M. Lovenfeld, 1939).

2. Q-saralash (O'zo'ining olami va atrofdagi kishilar haqidagi tasavvurlarini tadqiq etish; o'rganilayotgan shaxsga xos qirralarni aks ettiruvchi xususiyatlar qayd etilgan kartochkalarni saralash (V. Stefenson, 1953).

Interpretatsion proyektiv metodikalar

(Biror bitta voqea, hodislarni talqin etish)

1. Tematik appersepsiya testi — TAT (tasvirlar ifodasi suratlarda aks etgan) (X. Morgan, G. Myurrey, 1935).

2. "Tarix suratini tuz" — MAPS (TATning varianti bo'lib, 21 "fonli" surat, 67 "odamlar tasviri" ifodalangan suratlar: odamlarning suratlarini fonda joylashtirish va vaziyatlar haqida hikoya qilish (E. Shneydman, 1947).

3. Uch o'lchamli appersepsiya test (hikoya tuzish uchun hajmli shakllarni tanlash – tanlangan predmetlarni bayoni) (D. Tvichel-Alen, 1947). 4. Blek haqidagi suratlari Bleki (Dj. Blyum, 1950).

5. Obektiv munosabatlar testi (texnikasi) (Fillipson, 1955).

6. Intuitsiya test (TATga o'xshash: boshlangan hikoyani davom ettirish kerak) (YE. French, 1955).

7. Moslashtirishning simvulli testi (16 ta plastmassadan yasalgan predmetlar nomi bilan maxsus yacheykalarga joylashtiriladi — predmetlarning simvulli ahamiyat va assotsiatsiyalar ifodalanishi) (T. Kan, 1955).

8. Pikfordning proyektiv suratlari (Pikford, 1963).

9. Boshqariladigan proyeksiyalar metodikasi (Munosabat xususiyatlarini tadqiq etish. Tekshiriluvchiga tegishli va unga qaramaqarshi xususiyatlar ro'yxati taqdim etiladi, insonning o'tmish va kelajagi haqidagi tavsiflovchi savollar beriladi) (Stolin V.V., 1982).

Katartik xususiyatli proyektiv metodikalar guruhchasi

(uyushtirilgan sharoitlarda o'yin faoliyatini amalga oshirish)

Psixodrama (tekshiriluvchilar va boshqa aktyorlar ishtirokida sun'iy hayotiy vaziyatlar yaratiladi) (Dj. Moreno, 1946).

Ekspressiv proyektiv metodikalar

(erkin yoki tavsifa etilgan mavzuga rasm chizish)

1. Grafik testlar kompleksi (na osnove issledovaniy G. Ridning tadqiqotlari va K. Yungning tipologiya asosida, 1921; "Erkin surat", "Dunyo tasviri", "Avtoportret" (R. Berns)).
2. «Odam rasmi» (F. Gudinaf, 1926; modifikatsiya D. Xarrisning 1963 yildagi modifikatsiyasi).
3. Lovenfeldning mozika testi (M. Lovenfeld, 1930).
4. Dunyo test (predmetlarnig 232 modellari, 15 ta kaiyegoriya bo'yicha taqsimlashtirilgan: uy, daraxt, hayvonlar vaboshqalar. Predmetlarni tanlash asosida "o'z olami" yaratiladi. (M. Lovenfeld, 1939).
5. Mira-i-Lopetsning Miokinetik psixodiagnozi (tekshiriluvchi figurani bir necha bora paypaslab ko'rib chiqadi, so'ngra qaramasdan ularni ifodalaydi) (E. Mira-i-Lopets, 1940).
6. "Oila rasmi" metodikasi (rasmlar yordamida oiladagi ichki munosabatlar baholanadi) (V. Vulf, 1947).
7. "Uy-Darax-Odam" testi (Dj. Buk, 1948).
8. «Odam surati» (K. Maxover, 1949).
9. Daraxt testi (ushbu psixografik test XIX asrda E. Jyukkert va J. Shlibda tomondan qo'llanilgan, 1934 yilda K. Kox tomonidan, K. Koxom v 1949 yilda K. Kox ilk bora e'lon qildi).
10. Aronsonning grafik testi (noaniq rasmni qisqacha namoyon etish: tekshiruvchi ko'rgan rasmni ifodalashi kerak) (YE. Aronson, 1958).
11. Test "Geometrik shakllardan odam rasmini shakllantirish" (individual-tipologik xususiyatlar: 10 ta elementdan iborat uchta rasm (uchburchak, to'rtburchak, aylana) har xil o'lchamda) (E. Maxoni; A.V. Libin, 1989).
12. Kriminal-assotsiativ simvollar — KAS (tatuirovklarning interpretatsiyani).
13. "Mavjud bo'lmagan hayvon test".
14. Psixografologik texnologiyava talqin.

Impressiv proyektiv metodikalar guruhchasi

(bir stimolni boshqasidan ustun qo'yishi)

1. Sondi testi (psixik kasal odamlar fotografiyasini afzal bilish va inkor etishni tanlash) (L. Sondi, 30-ye gg. XX v.).
2. Lyusherning rangni tanlash testi (M. Lyusher, 1948).

Additiv proyektiv metodikalar

(gaplarni, hikoyalarni, tarixni, vaziyatlarni yakunlash)

1. Rozensveygning rasmi frustratsiya metodikasi (Test P-F) (S. Rozensveyg, 1942).
2. Insayt-test (15 ta vaziyat-sinov bayonini davom ettirish) (YE. Sarjent, 1944).
3. Bolalar attityudlari testi (yakunlanmagan interpretatsiya nezavershennix kartin-stimulov) (D. Kagan, D. Lemkin, 1960).
4. Test "Zaversheniye predlojeniy" (Sentence Completion Test — SCT; slovesniye assotsiativniye svyazi) (G. Ebbingauz, 1897; A. Peyn, 1928). Varianti: Test emotsionalnogo insayta (A. Tendler, 1930), Test «Nezavershenniye predlojeniya» — IST (dva subtesta po 50 punktov) (Rotter, Villerman), SSCT (60 punktov) Dj.M. Saksa.
5. Qo‘l testi (qo‘l ishoralarini bayon etish, ochiq agressiv xulqatvorni ifodalash) (B. Brayklin, Z. Piotrovskiy, E. Vagner, 1962).
6. Ko‘p o‘lchamli rasmi test (MDDT) (R. Blox, 1968).
7. Oilaning tizimli testi — FAST (shaxmat doskasiga ko‘z bilan chizilgan figuralar shaxmat taxtasi maydoniga joylashtiriladi — figuralar o‘rtasidagi masofa bo‘yicha munosabatlarning yaqinligini aniqlash) (T. Gering, I. Viler, 1986).
8. Frustratsiyaning formallashtirilgan testi (FTF) (I.N. Noss, 1994).

Semantik proyektiv metodikalar guruhchasi (shaxslilik mazmunini ifodalash obektiga emotsional munosabat) 1. Semantik differensial (SD) (CH. Osgud, 1952-1957).

2. Kellingning texnika repertuari panjara (individual-shaxslilik konstruktarni o‘rganish va tushunchalarning shaxslilik mazmunni tahlil qilishni idrok etishni o‘rganish) (G. Kelli, 1955).
3. Noverbal semantik differensial (qarama-qarshi qutbli rasmlarning shkalasi) (Bentler, Lavoye, CH. Osgud, 1962).
4. Xususiy semantik differensiallari (mejlichnostno-povedencheskiy SD; mimicheskiy SD; lichnostniy SD) (Dj. Kerrol; M. Uish, 1969).
5. Klassifikatsiya metodi ("saralash") (semantik test: ma‘noviy bog‘liq so‘zlarni saralash) (Dj. Miller, 1971).
6. Subektiv shkalalashtirish metodi (shkalalar yordamida tushunchalarbaholash semantik testi: 0 — o‘xshash emas; 4 — maksimal darajada o‘xshash) (R. Vudvors, G. Shlosberg, 1971).
7. "Ilohiy yangilik" (SDO) (Noss I.N., 1994).

Proyektiv testlar

Biz mavzumizda proyektiv metodikalarning klassifikatsiyasi xususida to'xtalib o'tamiz. Proyektiv metodikalarni tatbiq etish jarayonida ularning klassifikatsiyasi bir qator jihatlarni inobatga olishni talab etadi. Quyida klassifikatsiyaga doir keltirilgan ayrim yondashuvlar ustida to'xtalamiz.

Mashhur psixolog L.Frenk barcha proyektiv testlar to'g'risidagi nazariy va amaliy malumotlarni o'zlashtirib, ularning yangicha klassifikatsiyasini yaratdi (10.32-38 betlar). Uningcha, har bir turdagi proyektiv test alohida mazmun kasb etib, o'ziga xos tahlilni talab etadi. Metodikalarni guruhlarga bo'lish, tadqiqot natijalari tahlilini osonlashtiradi va tadqiqotchiga kulaylik olib keladi. Bugungi kun amaliyotida proyektiv testlarning bir qator turlari qo'llanilib kelinmoqda:

1. Konstitusiyaviy metodlar.
2. Konstruktiv metodlar.
3. Interpretatsion metodlar.
4. Katartistik metodlar.
5. Ekspressiv metodlar.
6. Impressiv metodlar.
7. Additiv metodlar.

Yukoridagi har bir testlar turiga alohida proyektiv metodikalar kirib, ular turlicha mazmun mohiyatga ega.

1. Konstitusiyaviy xarakterli proyektiv testlar qatoriga «Tugallanmagan so'zlar», «Tugallanmagan rasmlar» testlari kirib, o'tkazilish texnikasiga ko'ra, turli situatsiyali (vaziyatli) strukturalardan iborat. Metodika materiallari amorf xarakterga ega bo'lib, tekshiriluvchilardan asosan mantiqiy mulohazalashni talab etadi. Ushbu metodikaning mualliflari Saks va Levi hisoblanib, ommabop testlar qatoriga kiradi. Muallifdan oldin ham ushbu metodika, eksperimental psixologiyada qo'llanilgan. Yuqoridagi variantini esa Saks va Levilar yangi variantda tuzganlar. Metodikada 60 ta tugallanmagan so'zlar keltirilgan bo'lib, ular 15 ta guruhga ajratilgan. Metodika savollari orqali shaxsning oilaviy munosabatlardagi hulq-atvori, o'z-o'zidagi qarama-qarshilik chegarasi, seksual xarakter xususiyatlari, qo'rquv va hissiy buzilishlar, kelajakdagi va bugungi kundagi orzu istaklari, otaonasi bilan munosabati shu bilan birga do'st yaqinlari bilan munosabat mazmuni aniqlanadi. Test o'tkazishda alohida anketa mavjud bo'lib, u tekshiriluvchilarni testga tez yo'naltirish xususiyatiga ega. Shu qatorda tadqiqotchi Varttegning «Tugallanmagan rasmlar» testi ham xudi shu xarakterda foydalaniladi.

2. Konstruktiv xarakterdagi proyektiv metodikalar insonlar va hayvonlar figuralari, modellari orqali shaxs xususiyatlarini tahlil etadi. Bunda rasmlar va figuralar minatyura xarakterida ham ifodalanishi mumkin. Tadqiqot har bir yoshda

alohida xarakter kasb etadi. Bu esa tekshiriluvchilarning muhitdagi ijtimoiy ximoyasini ochib beradi.

Masalan, inson rasmi va hayvon rasmi testning kuprok masalasini tashkil etadi. Metodika tahlilida har bir figura, qurilish materiali, mozaika modellari va saranjomlik hisobga olinadi.

2. Interpretatsion xarakterdagi proyektiv testlar turkumiga TAT (tematik appersepsiya) testi misol bo'lib, bunda masala va topshiriklar illyustratsion xarakterda ifodalanadi. Metodika insondagi kiziqishlar, hissiy kechinmalar shu bilan birga, ichki imkoniyat va yashirin maqsadlarni aniqlaydi. Metodika mualliflari G. Myurrey va Morganlar sanaladi. Metodika Myurrey yaratgan shaxs nazariyasiga asoslanadi. Yani ehtiyojlar shaxsning xulq-atvorini, tasavvurlarini, bilish jarayonlarini yo'naltiradi va tashkillashtiradi, degan tamoyilga asoslanadi. Myurrey bunda barcha ehtiyojlarni psixodinamik kutilmalar, deb atadi. Myurrey barcha ehtiyojlarni vital va psixogen turga ajratadi. Vital ehtiyojlarga – suv-havo, psixogen ehtiyojlarni bilish, sanat, sevgi kabilarga ajratdi. Metodikada 20 ta ehtiyoj qo'llanilsa-da lekin, 24 tasi farqlanadi (6.26-31 betlar).

Myurrey fikricha, metodikadagi rasmlarni tekshiriluvchilar ikki xil izohlaydilar. Mavhumlik aks etgan rasmlarni o'z hayotiy tajribalari orqali bajaradilar. Erkak va ayollarga berilayotgan topshiriqlar alohida – alohida bo'lishi ham test koidalaridan biri sanaladi. Chunki, jinsiy xarakterdagi tafovut rasm guruhlarida alohida mazmun kasb etadi.

4. Katartistik mazmunli proyektiv testlarga o'yin faoliyati bilan belgilanadigan testlar kiradi. Masalan, «psixodrama», «ixtiyoriy teatr sahnasi», «terapevtik chiqishlar», misol bo'la oladi. Buning uchun sharttanlanishi, uyin texnikasi tanlanadi. Bunda shaxslardagi nizolar, boshqa insonlar bilan bo'ladigan munosabatlar ko'rinishi o'yin paytida ochiq oydin amalga oshiriladi. Bu texnika insonlarning har kandy vaziyatlarda muoammo va holatga o'z imkoniyatidan kelib chiqib ish tutishiga yordam beradi. Bu psixoterapiyada ko'p kullanadigan va shaxsni tarbiyalaydigan vosita hisoblanadi. Xoh rollar kulgili yoki salbiy obrazli bo'lsin, shaxs tipiga mos ravishda ijro etiladi. Bunda shaxsning fantaziya holatlari ham hisobga olinadi. Misol uchun «issiq stul» nomli trening uyini aynan insonni stressli vaziyatda oqilona hukm chiqarishida qo'l kelishligi takidlanadi.

